**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING**
**2021/2022 O‘QUV YILI 11 YIG‘ILISHI**
**BAYONI**

**2022-yil 4- iyul** — **Buxoro shahri**
**Katta yig‘inlar zali** — **soat 9:00**

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o‘quv yilining 11-yig‘ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Kengash raisi bugungi 11- kengash yig‘ilishida 73 nafar kengash a’zosidan 70 nafari ishtirok etayotganligini, 3 nafar kengash a’zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma’lum qilib, yig‘ilishni ochish to‘g‘risidagi masalani kengash a’zolari hukmiga havola etdi. Kengash a’zolari yig‘ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma’qullashdi.
Shundan so‘ng, kengash kun tartibi o‘qib eshittirildi.

**KUN TARTIBI:**

**I. <u>2021/2022 o‘quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo‘nalishi bo‘yicha:</u>**
**1.** 2021/2022 o‘quv yilida amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalar to‘g‘risida
1.2. Universitet tashkiliy-strukturaviy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida.
1.3. Universitet Jamoatchilik kengashi tarkibini qo‘yidagicha tasdiqlash to‘g‘risida.
***<u>Ma’ruzachi:</u> universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidov***

**II. <u>Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishi bo‘yicha:</u>**
**2.1.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish va Referendum jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida
**2.2.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqini keng o‘rganish va jamoatchilikka targ‘ib qilish to‘g‘risida
**2.3**. Universitetda giyohvandlik, VICH, OITS, chekish va boshqa yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
***<u>Ma’ruzachi:</u> Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha 1- prorektor A.A. Amonov***

**III. <u>O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:</u>**
**3.1.** Universitetда 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risida
**3**.2. Buxoro davlat universitetining yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning ta’lim shakllari va o‘qitish tillari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
***<u>Ma’ruzachi:</u> O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev***

**3.3.** Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida 2022/2022 o‘quv yili yakunlari va 2022/2023 o‘quv yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to‘g‘risida
***<u>Ma’ruzachi:</u> BuxDU pedagogika instituti direktori M. I. Daminov***

**IV. <u>Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi yo‘nalishi bo‘yicha:</u>**
4.Universitetda reyting ko’rsatkichlari bo’yicha 2022-yil 2-chorakda kafedralar tomonidan amalga oshirilgan ishlar to’g’risida
***<u>Ma’ruzachi:</u>*** *Ta’lim sifatini nazorat qilish bo’limi boshlig’i Z. Nurov*

**V. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi yo’nalishi bo’yicha:**
**5.1.** Universitet talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan "Pedagog talaba nigohida" so‘rovnomasining natijalari to‘g‘risida
**5.2.** Universitetda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha 2022-yil II chorak tahlili hamda Monitoring va ichki nazorat bo‘limining yillik faoliyati hisoboti to‘g‘risida

***Ma’ruzachi:*** ***Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i A. Qilichev***

**VI. Tanlovlar.**
**6.1.** BuxDU kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida
**6.2.** BuxDUning PI kafedra mudiri, dotsent, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida ***(Kengash kotibi N.Dilova)***

**VII. TURLI MASALALAR.**

**7.1.** Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.

***Ma’ruzachi:*** ***O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev***

**7.2.** 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini, oshirilgan to‘lov-kontrakt miqdori amalda o‘rnatilgan to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatini va talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish.

**7.3**. Turkmaniston Respublikasidan bo’lgan xorijlik bitiruvchi talabalarning Turkmaniston chegara punkiti ochilib ketganga qadar talabalar turar joyida qolishi tashkil etish masalasida.

***Ma’ruzachi:*** ***Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, A.T. Jo‘rayev***

**7.4.** Kafedra professor-o’qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to’g’risida.

**7.5.** Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi dotsenti, i.f.d. (DSc) N.S. Ibragimov 2022 yilda xalqaro reyting indikatorlarida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi universitetlaridan biri (QS:357) Qozog‘iston Yevroosiyo milliy universiteti doktoranti Berdibekova Amina Shukurqali qiziga xorijiy maslahatchi sifatida tayinlanganligi to‘g‘risida.

**7.6.** 2022/2023 o‘quv yilida fakultetlarda o‘quv me’yoriy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida

**7.7.** Pedagogik ta’lim sohasi talabalarining o‘quv jarayonlarini 4+2 (4 kun o‘quv va 2 kun amaliyot) tashkil etish va belgilangan tartib asosida o‘quv rejalariga o‘zgartirish kiritish va tasdiqlash to‘g‘risida

**7.8.** Universitetda Oliy ta’limdan keying ta’lim institutida 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati hamda 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosliklarini ochish to‘g‘risida.

**7.9.** 2021/2022 o’quv yili yozgi ta’til davomida akademik qarzdor talabalar uchun tashkil qilingan qayta o’zlashtirish darslarini o’tgan professor-o’qituvchilarga soatbay haq to’lash.

**Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?**

**Ovozlar:** tasdiqlansin.
**RAIS:** kun tartibini tasdiqlash to‘g‘risida taklif bo‘ldi. Uni ovozga qo‘yaman.

Tarafdorlar 70 nafar
Qarshilar – yo‘q.
Betaraflar – yo‘q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o‘tamiz.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

**I. <u>2022/2023 o‘quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo‘nalishi bo‘yicha:</u>**

**1.1 O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining OTMlari faoliyatini yanada rivojlantirish borasidagi topshiriqlari yuzasidan universitetda amalga oshirilayotgan ishlar hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik holati to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, Kengash raisi) kengash a’zolariga O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining OTMlari faoliyatini yanada rivojlantirish borasidagi topshiriqlari yuzasidan universitetda amalga oshirilayotgan ishlar hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik holati to‘g‘risida axborot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktabrdagi “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoniga asosan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish, O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarining flagmaniga aylantirish, respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish, oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta’minlash, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish, xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko‘lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga oliy ta’lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko‘rsatkichlari oshishi, shuningdek respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma’lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta’minlash, oliy ta’limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta’lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish, talaba-yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish, oliy ta’lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag‘larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash, ta’limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorligini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilab berilgan edi.

Mazkur farmonga asosan OTMni yanada rivojlantirish, yuqoridagi topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida universitetimizda bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Barcha ta’lim yo‘nalishlari ma’sullari o‘zlariga tegishli chora-tadbirlar asosida universitetdagi ta’lim-tabiya jarayonini rivojlantirishni yuqori darajaga olib chiqish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta’minlash asosida ta’lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi PQ-4391-son “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash borasida ham bir qator tizimli ishlar amalga oshirildi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolaridan prorektorlar A. Amonov, R. Jumayev, O‘. Rashidov, A. Jo‘rayevlar, dekanlar H. Artikova, D. Yavmutov, H. Eshankulov, H. Jo‘rayevlar, kafedra mudirlari T. Shafiyev, B. Namozov. Sh. Olimov, M. Ro‘ziyeva, M. Hikmatova, O. Fayzullayevlar ham o‘z taklif va fikrlarini bildirishdi.

Universitetda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining OTMlari faoliyatini yanada rivojlantirish borasidagi topshiriqlari yuzasidan amalga oshirilayotgan bir qator ishlar ijobiy baholandi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidovning “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining OTMlari faoliyatini yanada rivojlantirish borasidagi topshiriqlari yuzasidan universitetda amalga oshirilayotgan ishlar hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik holati to‘g‘risida” gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining OTMlari faoliyatini yanada rivojlantirish borasidagi topshiriqlari yuzasidan universitetda amalga oshirilayotgan ishlar qoniqarli deb topilsin.
3. Universitetda har bir ta’lim yo‘nalishida zamonaviy jarayonlar faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar bo‘yicha takliflar berilsin. (Ma’sullar: prorektorlar, dekanlar, bo‘lim boshliqlari) muddat – 20.08.2022y gacha
4. Ushbu qaror ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

1.**2. Universitetning tashkiliy - strukturaviy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, Kengash raisi) kengash a’zolariga Universitetning tashkiliy - strukturaviy tuzilmasini tasdiqlash masalasi haqida ma’lumot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi "Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 61-son Qaroriga asosan Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalarini mustaqil hal etish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga mablag‘larni jalb etish imkoniyatini kengaytirish hamda oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida raqobat muhitini rivojlantirish maqsadida Universitetning tashkiliy - strukturaviy tuzilmasini tasdiqlash masalasi ҳақида ўз фикрларини билдирди.

Tegishli fakultet va kafedralarni o‘qib eshittirdi. Har bir kafedraning nomlanishi asoslanildi. Ushbu yangidan tashkil etilgan kafedra nomlari va ularning maqsad vazifalari haqida o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R. Jumayev so‘zga chiqib tegishli asoslar bilan kengash a’zolarini tanishtirdi.

Shu bilan birga universitetning tashkiliy - strukturaviy tuzilmasi 1, 2- ilovalarini taqdimotini qilib berdi va kengash a'zolaridan ushbuni tasdiqlab berishlarini so'radi. (1-2-ilovalar bayonnomaga biriktiriladi)

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo'yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr - mulohazalarini bildirishdi va bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi, qarshilar va betaraflar yo'q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

**1.** Universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidovning "Universitetning tashkiliy - strukturaviy tuzilmasini tasdiqlash to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
**2.** Universitetning tashkiliy - strukturaviy tuzilmasi 1-ilovaga, fakultet va kafedralar 2- ilovaga asosan tasdiqlansin.
**3.** Ushbu qaror ijro nazoratini o'z zimmamda qoldiraman

---

**1.3. Universitet Jamoatchilik kengashi tarkibini tasdiqlash to'g'risida.**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, Kengash raisi) kengash a'zolariga Universitet Jamoatchilik kengashining faoliyati, bugungi kunda ushbu kengash ishini yanada takomillashtirish, shaffoflikni belgilangan tartiblar asosida kafolatlash zarurligini ta'kidladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 05-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori ijrochisni ta'minlash, shuningdek, chuqur kasbiy bilimlarga va ilmiy yutuqlarga, ijodiy, ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyatlar va axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash bilan shug'ullanishga munosib, zamon talablariga mos yuqori malakaga ega bo'lgan kadrlarni tanlash uchun raqobat muhitini yaratish va ta'minlash maqsadida Yangi o'quv yili oldidan Universitet Jamoatchilik kengashi tarkibini quyidagicha tarkibda tasdiqlash taklifini bildirdi.

| **Universitet Jamoatchilik kengashi tarkibi** | | | |
|---|---|---|---|
| **№** | **F.I.O.** | **Lavozimi** | **Kengash tarkibida** |
| 1. | Xamidov Obidjon Xamidovich | Universitet rektori | rais |
| 2. | Jumayev Rustam G'aniyevich | O'quv ishlari bo'yicha prorektor (vakolatiga doir ishlarni tashkil qiladi) | rais o'rinbosari |
| 3. | Amonov Azizbek Amonjonovich | Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, (vakolatiga doir ishlarni tashkil qiladi) | rais o'rinbosari |
| 4. | Jo'rayev Abror Turobovich | Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor | a'zo |
| 5. | Nurov Ziyodulla Saymurodovich | Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i | a'zo |
| 6. | Kobilov Baxtiyor Badriddinovich | Universitet kasaba uyushma qo'mitasi raisi | a'zo |
| 7. | Adizova Obodon Istamovna | Xotin-qizlar qo'mitasi raisi | a'zo |
| 8. | Karimov Feruz Raimovich | "Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari" kafedrasi o'qituvchisi, universitet Yoshlar ittifoqining boshlang'ich tashkiloti yetakchisi | a'zo |
| 9. | Fayziyeva Umida | Xodimlar bo'limi boshlig'i | a'zo |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Asadovna | | |
| 10. | Qilichev Akram Abdusamadovich | Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi | a’zo |
| 11. | Quliyev Yorqin Karimovich | Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens-nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i | a’zo |
| 12. | Dilova Nargiza Gaybullayevna | Universitet kengash kotibi | a’zo, kotib |
| 13. | Sharapov Shuxrat Shokirovich | Katta yuriskonsult | a’zo |
| 14. | Xuseynova Abira Amanovna | O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari (OMBUDSMAN) bo‘yicha Buxoro viloyati vakili, Oliy Majlis senatori | a’zo |
| 15. | Aminov Murod | O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Buxoro viloyati filiali bosh mutaxassisi | a’zo |
| 16. | Mardonov Shoxrux Olimovich | O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi Buxoro shahar Kengashi raisi | a’zo |
| 17. | Ibodov Anxor Baxshullayevich | Axmad Donish mahalla fuqaro yig‘ini raisi | a’zo |
| 18. | Narzullayev Alisher Ibadullayevich | O‘zbekiston xalq ustasi, O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi Akademigi kulol usta | a’zo |
| 19. | Axmedova Dilbar Buranovna | “Tadbirkor ayol” uyushmasi Buxoro viloyat bo‘limi raisi | a’zo |

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolari o‘z fikr - mulohazalarini bildirishdi va bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi, qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

**4.** Universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidovning “Universitet Jamoatchilik kengashi tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**5.** Universitet Jamoatchilik kengashi a’zolari tarkibi ko‘rsatilgan ro‘yxat asosida tasdiqlansin.

6. Ushbu qaror ijro nazorati xodimlar bo‘limi boshlig‘i U. Fayziyeva, Kengash kotibi N. Dilova zimmasiga yuklatilsin.

---

**II. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishi bo‘yicha:**

**2.1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish va Referendum jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: A.A. Amonov (***Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha 1-prorektor)* kengash a’zolariga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish va Referendum jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida axborot berdi.

Hurmatli kengash a’zolari Prezident Konstitutsiyani parlament vakolati bilan emas, balki referendum o‘tkazish yo‘li orqali o‘zgartirishni taklif qildi. «Konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida referendum orqali amalga oshirsak, bu — haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘ladi», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Konstitutsiyaga kiritiladigan o‘zgartirishlar referendum yo‘li bilan qabul qilishni taklif qildi. U bu haqda dushanba kuni Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda ma’lum qildi, deb xabar berdi uning matbuot kotibi.

«Albatta, xalqimizdan Komissiyaga kelib tushgan barcha muhim va dolzarb takliflarni bugun Sizlar bilan batafsil muhokama qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Men ularning ayrimlariga to‘xtalib o‘tdim, xolos. Komissiya taklifi asosida Parlament tomonidan ishlab chiqilgan loyihani umumxalq muhokamasida ko‘rib chiqishni hamda referendum o‘tkazish yo‘li bilan qabul qilishni taklif etaman», - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Amaldagi qonunchiligimizga ko‘ra, parlamentning o‘zi ham Konstitutsiyaga o‘zgartish kiritish vakolatiga egaligi ta’kidlandi.

«Lekin, konstitutsiyaviy islohotni fuqarolarimiz fikri va qo‘llab-quvvatlashi asosida referendum orqali amalga oshirsak, bu tom ma’noda xalqimiz xohish-irodasining ifodasi — haqiqiy xalq Konstitutsiyasi bo‘ladi, deb o‘ylayman», — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Uning fikricha, bu «Konstitutsiyaning yagona manbai va muallifi — xalqdir» degan tamoyilga to‘la mos keladi.

«Shunda har bir vatandoshimiz „Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi - mening Konstitutsiyam“ deb yuksak g‘urur bilan ayta oladi», - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident xalqga murojaat qildi: «Aziz yurtdoshlar, bugun notinch dunyoda, o‘ta tahlikali zamonda yashayapmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotida g‘oyat mas’uliyatli davrni boshdan kechirmoqdamiz. Yangi O‘zbekistonni barpo etish maqsadida boshlagan barcha islohotlarimiz har birimizning bugun va kelajakda farovon hayot kechirishimizni ta’minlashga qaratilgan. Har bir yurtdoshimiz o‘z hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, sha’ni va g‘ururini ulug‘lab, Vatani va xalqiga tog‘dek tayanch bo‘lib yashashga qodir, erkin va azmu shijoatli insonlardir».

Uning so‘zlariga ko‘ra, shu bois ham barcha Konstitutsiyaga kiritish taklif etilayotgan yangi norma va qoidalarni ongu tafakkur, qalbdan o‘tkazib, ularga xolis va haqqoniy munosabatni bildirishi lozim.

«Barchamiz Asosiy qonunimizda o‘zimizni, oilamizni, mahallamizning orzu-umidlarini ko‘rishga intilayotganimiz - bu tabiiy va mutlaqo to‘g‘ri», - dedi davlat rahbari.

«O‘ylaymanki, Konstitutsiyaga kiritiladigan barcha tuzatish va qo‘shimchalar mamlakatimizning 14 ta hududiy birligidan iborat yagona davlatni, millati va elatidan qat’i nazar, yagona va qudratli O‘zbekiston xalqini yanada jipslashtiradi hamda ulug‘vor maqsadlar sari safarbar etadi. Shu bois barcha aziz vatandoshlarimizni konstitutsiyaviy islohot jarayonida yanada faol qatnashishga chaqiraman», - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Ta’kidlanishicha, bu jarayondagi ishtirok bilan fuqarolar oilasi, farzandlari mana shu muqaddas zaminda yanada erkin va farovon yashashi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

«Qadrli vatandoshlarim! Sizlarni ishontirib aytmoqchiman, davlatimiz yangilanayotgan Konstitutsiyamiz moddalarini hayotda to‘la qaror toptirish uchun barcha kuch va vositalarni safarbar etadi. Bu yangiliklar aniq qonun va kodekslar, amaliy dasturlar va rejalar bilan hayotimizda albatta o‘z aksini topadi», - dedi prezident.

Har bir konstitutsiyaviy norma ijrosini ta’minlash bo‘yicha aniq ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy-huquqiy chora-tadbirlar ko‘rilishi qo‘shimcha qilindi.

Shu jumladan universitetda ham O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish va Referendum jarayonlariga puxta tayyorgarlik ko‘rildi. Referendumni o‘tkazish uchun belgilangan tartibga muvofiq universitet Bosh bino foyyesida barcha shart-sharoitlar yaratildi. Universitetning rasmiy web-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlari orqali keng ko‘lamli targ‘ibot tashviqot ishlari olib borilib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining har bir o‘zgartirish kiritiladigan bandlari bo‘yicha har kunlik tahliliy ma’lumotlar berib borilmoqda. Bunda universitetning yetakchi pedagog-xodimlari tomonidan ommaviy axborot vositalarida chiqishlari tashkil etilmoqda.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitet miqyosida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar

kiritish va Referendum jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish borasida amalga oshirilgan ishlar tizimli amalga oshirilganligini e’tirof etishdi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish va Referendum jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar kiritish va Referendum jarayonlari universitet Bosh yig‘ingohida o‘tkazilishi munosabati bilan universitet hududida obodonlashtirish ishlari olib borilsin hamda belgilangan targ‘ibot vositalari ko‘zga ko‘rinadigan joylarga osilsin (mas’ul: O‘.Rashidov, A.Amonov, Sh.Tursunov).
3. Konstitutsiyaga kiritiladigan o‘zgartirishlar referendum yo‘li bilan qabul qilinishi to‘g‘risida universitetda faoliyat olib boruvchi barcha pedagog-xodimlar hamda talaba-yoshlar e’tiboriga referendumni o‘tkazish tartibi bo‘yicha targ‘ibot ishlari olib borilsin (mas’ul: A.Amonov, dekanlar, dekan o‘rinbosralari, kafedra mudirlari, tyutorlar, jamoat ttashkilotlari rahbarlari.

---

**2.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqini keng o‘rganish va jamoatchilikka targ‘ib qilish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: A.A. Amonov (***Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha 1-prorektor)* kengash a’zolariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqini keng o‘rganish va jamoatchilikka targ‘ib qilish to‘g‘risida axborot berdi.

O‘zbekiston yoshlari uchun ulkan imkoniyatlar yaratilib berilishi bilan bir qator yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda ularni yanada ruhlantirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan 30-iyun yurtimizda Yoshlar kuni etib belgilandi. 30-iyun – serquyosh, farovon o‘lkamizda Yoshlar kuni. Yurtimizdagi har bir yoshning chinakam bayrami bo‘ldi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvarьь holatiga yurtimizda 14–30 yoshdagi jami doimiy aholi soni 9 million 685 ming 564 nafarni tashkil etgan.

O‘g‘il bolalar – 4 954 910 nafar, Qiz bolalar – 4 730 654 nafarni tashkil etmoqda.

Ta’kidlash joiz, mamlakatimizda yoshlar masalasi har doim davlat siyosati darajasidagi muhim masala bo‘lib kelgan. So‘nggi yillarda yosh yigit-qizlarimiz uchun yaratilayotgan keng ko‘lamdagi imkoniyat va shart-sharoitlar, ularning o‘qib-o‘rganishlari, qizg‘in faoliyat ko‘rsatishlari uchun qaratilayotgan e’tibor va g‘amxo‘rlik nafaqat yurtdoshlarimiz, balki dunyo hamjamiyatini ham o‘ziga jalb etayotir. Iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning iste’dodini yuzaga chiqarish uchun har bir hududda zarur shart-sharoitlar muhayyo qilinmoqda.

Hududlarda yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, madaniy-ma’naviy saviyasini yuksaltirish maqsadida qator markazlar ishga tushirildi. Zamonaviy sport inshootlari barpo etilib, foydalanishga topshirildi. O‘g‘il-qizlarimizning yangi loyiha va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga, ularni amaliyotga tatbiq etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyovning O‘zbekiston yoshlariga yo‘llagan bayram tabrigida ta’kidlanganidek, bugungi kunda zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallash har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi shartiga aylanib borayotgani hech kimga sir emas. Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda, yurtimizda navqiron avlodimizning ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishi uchun bor kuch va imkoniyatlar safarbar etilmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida ham qator amaliy ishlar yo‘lga qo‘yilgan. Buning uchun, avvalo, mustahkam tashkiliy va huquqiy baza yaratilgan.

O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi ham o‘z faoliyati davomida yoshlar bilan ishlashga, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratib keladi.

Bugun turli loyihalarimiz zamonaviy fikrlaydigan, iqtidorli, tashabbuskor yoshlar bilan birgalikda amalga oshirilayotgani ham e'tiborga molik.

Aziz yoshlar, siz ona Vatanimizning, elu yurtimizning mustahkam ishonchi, porloq kelajagi, ertamizning umidisiz! Yaratilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanayotgan yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, qat'iy pozitsiyaga ega yoshlar mamlakatning bugungi va ertangi taraqqiyotida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotganini har birimiz ko'rib, guvohi bo'lib turibmiz. Yoshlarimizni buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo'lib, yangi O'zbekistonimizning yangidan yangi marralarini zabt etishingizdan umidvormiz.

Xabaringiz bor, mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. Mahallalarda 9,5 ming yoshlar yetakchilari o'z faoliyatini boshladi.

Hozirga qadar "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 700 mingdan ortiq yigit-qizlarning muammolarini hal etishga 650 milliard so'm yo'naltirildi.

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash ustuvor yo'nalishga aylandi. So'nggi ikki yilda 174 ming nafar yoshning tadbirkorlik loyihalari uchun 4 trillion 400 milliard so'm imtiyozli kreditlar yo'naltirildi.

Dehqonchilik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan 560 ming tengdoshingizga joriy yilda 155 ming gektar yer maydoni ajratilib, 800 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, yoshlarni ishga olgan tadbirkorlarga ijtimoiy soliq summasini qaytarish tartibi joriy etildi va bu imkoniyatdan 715 ming nafar yoshlar ishlayotgan 7,5 ming korxona foydalandi.

Albatta, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ham katta-katta qadamlar qo'yilmoqda. Bu borada Yangi O'zbekistonning yangi maktablari – Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablar ko'lami kengayib, ularda tahsil olayotgan o'quvchilar yuqori natijalarga erishmoqda.

O'tgan o'quv yilida birgina Prezident maktablarini bitirgan 424 nafar o'g'il-qizlarning barchasi oliy ta'lim muassasalariga qabul qilindi. Ularning 102 nafari yoki 24 foizi xorijdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgani tahsinga sazovordir.

So'nggi ikki yilda 400 nafar yoshlarimiz "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali chet ellardagi eng nufuzli oliygohlarda o'qishga yuborildi. Misol uchun, toshkentlik Lamiya Xudoyorova – Oksford universitetiga, buxorolik Rasulbek Bahodirov – London universitetiga, samarqandlik Nilufarxon Ro'ziyeva – Chikago universitetiga o'qishga qabul qilindi. Bunday yigit-qizlar har bir viloyatda ko'plab topiladi.

Iqtidorli yoshlarimiz keyingi bir yil ichida xalqaro fan olimpiadalarida 255 ta medalni qo'lga kiritdi.

Shu bilan birga, joriy yilda 382 nafar sportchi yoshlarimiz nufuzli xalqaro musobaqalarda 419 ta sovrinli o'rinlarni egalladi. Jumladan, Nodirbek Abdusattorov va Umida Omonova – tezkor shaxmat bo'yicha; Zuhriddin Qodirov – qilichbozlik bo'yicha jahon chempioni bo'lgani; 23 yoshgacha futbolchilarimiz Osiyo chempionatining kumush medalini qo'lga kiritgani, shubhasiz, butun xalqimizga g'urur bag'ishladi.

Bu o'g'il-qizlarimiz xalqimizning oltin fondi, Uchinchi Renessans bunyodkorlari, desam, hech mubolag'a bo'lmaydi. Yangi O'zbekistonning kelajagi hisoblangan bunday fidoyi, bilimli, zukko va vatanparvar o'g'il-qizlarimiz barchaga namuna bo'lishi kerak.

Prezident forumga O'zbekiston yoshlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator yangi chora-tadbirlarni qabul qilish bo'yicha takliflar bilan kelganini ta'kidladi.

Jumladan,

Eng avvalo, yoshlarimizning zamonaviy kasb va bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirish,

18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlarni kasbga bo'lgan qiziqishi 14 yoshidan, ya'ni maktab davridanoq shakllantirish,

Shu bois bundan buyon 14-17 yosh oralig'idagi 3 million nafarga yaqin o'g'il-qizlarga ham "Yoshlar daftari"da ko'zda tutilgan imtiyoz va yengilliklardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Xususan, unda nazarda tutilgan imtiyozlar amaldagi 11 tadan 25 taga ko'paytiriladi. Jumladan, ushbu daftarga kiritilgan yoshlarga zamonaviy kasblar, axborot texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganishi uchun har oyda 1 million 200 ming so'mdan subsidiya beriladi.

Shuningdek, yoshlarga ilm-fan, sport, san’at va madaniyat yo‘nalishlaridagi to‘garaklar uchun 6 oy davomida 300 ming so‘mdan pul to‘lanadi. Ularga ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha mahalliy olimpiadalarda qatnashish xarajatlari uchun – 1 million 200 ming so‘mdan, nufuzli xalqaro olimpiadalar uchun – 12 million so‘mdan mablag‘ ajratiladi.

“Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan oilalarning farzandlari uchun yilda bir marotaba maktab formasi hamda o‘quv qurollarini sotib olish xarajatini davlat o‘z zimmasiga oladi.

Yana bir muhim yangilik – musiqa san’atiga qiziqishi baland bo‘lgan yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab maqom xonandaligi, maqom cholg‘u ijrochiligi va baxshichilik yo‘nalishlariga yangi qabul qilingan talabalarning shartnoma to‘lovlari to‘liq davlat tomonidan to‘lab beriladi. Fortepiano ijrochilari tayyorlash bo‘yicha qabul 3 barobar ko‘paytirilib, bu yo‘nalishda ham kontrakt to‘lovlari to‘la qoplab beriladi.

Bundan tashqari, endi texnikumlarga qabul yilda 2-marta tashkil etilib, talabalar uchun davlat granti soni 2 barobar oshiriladi. Shuningdek, texnikumlar uchun ta’lim krediti joriy qilinadi va 80 mingdan ziyod yoshlarga kredit berish uchun moliyaviy resurs ajratiladi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, bugungi kunda 1 nafar IT mutaxassisini tayyorlash uchun kamida 1 yil vaqt va 20 million so‘mgacha mablag‘ talab etiladi. Vaholanki, yaxshi mutaxassis 2-3 oyda bitta dastur yaratib, ushbu xarajatni bemalol qoplashi mumkin.

Bundan buyon xususiy ta’lim muassasalarida IT texnologiyalari bo‘yicha o‘qish (dasturlash, veb-dizayn, animatsiya) istagini bildirgan yoshlarga ham 20 million so‘mgacha miqdorda 4 yillik imtiyozli kredit taqdim etiladi.

So‘nggi vaqtlarda olis hududlardagi maktablar o‘quvchilari ham xorijiy tillar bo‘yicha bilim bellashuvlarida yaxshi natija ko‘rsatmoqda. Bunday yoshlarimiz bilan har qancha faxrlansak, ularni rag‘batlantirib borsak arziydi.

Respublika bellashuvlarida yuqori natijalarga erishgan ana shunday 70 nafar o‘quvchimiz va ularning 14 nafar ustozi davlat hisobidan Buyuk Britaniyaga safarga yuboriladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha joriy qilingan yangi tizim asosida 8 milliondan ziyod yigit-qizlarimizni qamrab olgan “Yoshlar balansi” shakllantirildi. Unga ko‘ra, ayni paytda respublikamizda ishsiz yigit-qizlar 1 million 200 ming nafarni tashkil etmoqda. Shulardan 850 ming nafari ishlash istagida bo‘lgan yoshlar hisoblanadi.

Eng muhimi, yoshlarning qiziqishlari, kasb-hunarga moyilligi, ma’lumoti, ijtimoiy ahvoli va muammolaridan to‘laroq xabardor bo‘lish imkonini beradigan tizim yaratildi.

Joriy yilda 404 ming yigit-qiz o‘rta ta’limni, 151 ming nafari professional ta’lim muassasasini bitirib, mehnat bozoriga kirib keladi. Ularning bandligini ta’minlash eng dolzarb vazifa hisoblanadi. Jumladan, bir yil davomida tadbirkorlik dasturlariga 4 trillion so‘m yo‘naltirish orqali 220 ming nafar yoshlarning bandligi ta’minlanadi. 130 ming nafar yoshlarga kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qishi uchun 160 milliard so‘m subsidiya ajratiladi. 110 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz esa, davlat korxonalari va xususiy sektordagi bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtiriladi.

Shuningdek, yoshlarning tadbirkorlik loyihalariga 250 milliard so‘m subsidiya va kompensatsiyalar beriladi. Ayni paytda ularning qishloq xo‘jaligi sohasidagi faoliyatini ham tizimli ravishda rag‘batlantirib boramiz. Masalan, Oltiariq uzumchilik klasteri namunasi asosida respublikamizdagi 70 ta tumanda “Yoshlar agroklasteri”ni tashkil etib, 400 ming nafar yoshlarni ish bilan ta’minlaymiz.

Viloyat, tuman va shahar hokimlari yoshlar bilan uchrashib, ushbu rejalarni o‘z hududlari bo‘yicha batafsil muhokama qildilar. Endi har yili o‘quv yili yakunlanishi bilan, yoshlar bandligini ta’minlash bo‘yicha har bir hudud alohida dastur qabul qiladi.

Albatta, hozirgi yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish oson emas. Bu borada mahallalardagi 6 milliondan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning iste’dodini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha Besh tashabbus olimpiadaci yo‘lga qo‘yildi. Bugungi tadbirda ushbu olimpiada g‘oliblari bo‘lgan 345 nafar yigit-qizlarimiz ham qatnashmoqdalar.

Agar sizlar qo‘llab-quvvatlasangiz, endi Besh tashabbus olimpiadasi har yili 2-marta o‘tkazib boriladi.

Yana bir muhim masala – bugungi yoshlar o‘ziga kerakli ma’lumotlarni avvalo Internetdan olmoqda. Shunday ekan, Internetning milliy segmentida yoshlarni o‘ziga jalb qiladigan, tariximiz,

madaniyatimiz, qadriyatlarimiz haqida ishonarli va qiziqarli ma’lumot beradigan kontentlar yetarlimi?

Afsuski, bu savolga ijobiy javob berolmaymiz. Hali bu borada oldimizda juda katta vazifalar turganini barchangiz yaxshi his qilasiz, albatta.

Shuningdek, yurtimizdan yetishib chiqqan 100 nafar buyuk alloma va mutafakkirlarning Internetdagi ma’lumotlar bazasini yaratish, ularning asarlarini ommalashtirish choralarini ko‘ramiz.

Vikipediyada o‘zbek tilidagi maqolalar sonini 100 mingtaga yetkazish va xorijiy tillarda ham O‘zbekiston haqidagi ma’lumotlarni joylashtirish yaxshi samara berishi shubhasiz. Ushbu maqsadlar uchun 10 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltiriladi.

Bunday tadbirlarga, bilimli va shijoatli volontyor yoshlarni jalb qilish hamda ularning faoliyatini tizimli ravishda rag‘batlantirib borish lozim.

Bugun volontyor yoshlar harakati jamiyatimizning ko‘plab sohalarida keng quloch yozmoqda. Bundan buyon Yoshlar ishlari agentligi bu harakatga bosh-qosh bo‘ladi. Yoshlarning tashabbuslari asosida har yili Harakatlar dasturi ishlab chiqiladi hamda volontyorlik faoliyati qo‘llab-quvvatlanadi.

Yoshlarning ta’lim olishiga e’tibor qaratish bilan birga kitobxonlikni yanada kuchaytirishimiz zarur. Shu maqsadda mahallalardagi yoshlar yetakchilari har bir ko‘cha kesimida kitobxonlik tanlovi, “Zakovat” va boshqa intellektual o‘yinlarni yo‘lga qo‘yadi. Bunday tanlovlar har haftada – mahalla kesimida, har oyda – tuman miqyosida va har chorakda viloyat darajasida o‘tkazib borilishi kerak. Bu orqali 2 millionga yaqin yoshlar qamrab olinadi.

Joriy yildan boshlab 36 ta sport federatsiyasi, 274 ta sport maktabi o‘z hududidagi mahallalar, o‘rta maktablar, kollej va texnikumlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Har bir ko‘cha, mahalla, maktab, kollej va texnikumda futbol, basketbol, voleybol, stol tennisi, velosport, yugurish, shaxmat-shashka va boshqa sport turlari bo‘yicha jamoalar tuziladi.

Bundan buyon barcha sport musobaqalari “mahalla – tuman – viloyat – respublika” zanjiri asosida tashkil etiladi.

Albatta, bunday ishlarni amalga oshirish mahalladagi yoshlar yetakchilaridan katta mas’uliyat va tashabbuskorlik talab etadi.

Islohotlarimiz navqiron avlod hayotiga yanada chuqur kirib borishi uchun yoshlar yetakchilariga kengroq imkoniyat va vakolatlar bersak, o‘ylaymanki, sizlar ham buni qo‘llab-quvvatlaysiz.

Bundan buyon har yili oliygohlarning sirtqi bo‘limiga o‘qishga qabul qilingan 500 nafar eng faol yoshlar yetakchilarining kontrakt to‘lovlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan to‘lab beriladi. Shuningdek, “Yosh rahbar kadrlar zaxirasi” shakllantirilib, uning 30 foizi yoshlar yetakchilari hisobidan to‘ldiriladi.

Biz “Betakror yurtimizda barqaror jamiyatni va bardavom taraqqiyotni ta’minlash – barchamizning bosh maqsadimizdir” shiori ostida islohotlarimizning yangi davrini boshlamoqdamiz.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashni islohotlarimizning bosh mezonlaridan biri sifatida belgilandi.

Prezident - Hech qachon unutmang, sizlar inson har tomonlama erkin, ozod va farovon yashaydigan Yangi O‘zbekiston hamda Uchinchi Renessans bunyodkorlarisiz – deya ta’kidladi.

Yurtboshimiz so‘zining yakunida yoshlarning yonib turgan ko‘zlarini, shodlikka to‘la go‘zal chehralariga, akademik shoirimiz G‘afur G‘ulomning:

Siz axir osmonni olmoq bo‘lsangiz,

Ne uchun yelkamni tutib bermayin? – degan otashin satrlari bilan yakunladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosi yuzasidan Buxoro davlat universitetining yo‘l xaritasi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Shuningdek, tantanali marosimdagi vazifalar ijrosi sifatida Talabalar bilan ishlash metodikasini keng o‘rganish maqsadida “Tyutorlar birlashib katta kuchmiz!” g‘oyasi ostida joriy yilning iyulьь oyida “Besh tashabbus – imkoniyatlar kaliti” festivali va amaliy seminar-treninglar

o‘tkazildi. Mazkur festivalьь va amaliy seminar-treninglar an’anaviy ravqishda endilikda doimiy ravishda o‘tkazilib kelinadi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali masrosimdagi nutqida belgilan ustivor vazifalar yuzasidan universitet pedagog-xodimlari hamda talabalarining ijtimoiy tarmoqlarda keng ko‘lamli chiqshlari tashkil etildi. Prezident nutqi universitetda faoliyat olib boruvchi har bir pedagog-xodim va talabalar e’tiboriga yetkazildi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitetda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqini o‘rganilganligi va jamoatchilikka keng targ‘ib qilinganligini ta’kidlashdi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor A.Amonovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqini keng o‘rganish va jamoatchilikka targ‘ib qilish to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqining mazmun-mohiyati yuzasidan universitetda faoliyat olib boruvchi yetakchi professor-o‘qituvchilar hamda tashabbuskor yoshlar tomonidan ommaviy axborot vositalarida chiqishlarini tashkil etish (mas’ul: A.Amonov, dekanlar, dekan o‘rinbosralari, kafedra mudirlari, jamoat tashkilotlari rahbarlari).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 30-iyun - Yoshlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ilgari surilgan ustivor vazifalar yuzasidan universitetning ko‘zga ko‘rinadigan yerlarida ko‘rzgazmali bannerlar tashkil etilsin (mas’ul: A.Amonov, O‘.Rashidov, Sh.Tursunov).
4. Talaba-yoshlarning talaba va istaklarini inobatga olgan holda ularning ijtimoiy sharoitini yanada yaxshilash maqsadida pullik to‘garaklar faoliyatini tashkil etish bo‘yicha taklif kiritilsin (mas’ul: A.Amonov, dekanlar).

---

**2.3. Universitetda giyohvandlik, VICH, OITS, chekish va boshqa yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

**ESHITILDI: A.A. Amonov (***Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha 1-prorektor)* kengash a’zolariga Universitetda giyohvandlik, VICH, OITS, chekish va boshqa yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot berdi. Universitet talabalari o‘rtasida giyohvandlik, VICH, OITS, chekish va boshqa yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida borasida viloyat huquq tartibot organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda reja asosida qator tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

**Bugun muhokamaga qo‘yilgan mavzu dolzarb va muhim mavzu hisoblanadi**.

Universitetda amalga oshiriladigan ma’naviy-ma’rifiy hamda mavsumiy chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash maqsadida universitetda **“Oylik yo‘l xaritasi”** shakllantirilgan. Yo‘l xaritada giyohvandlik, VICH, OITS, chekish va boshqa yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida har oyda **20 tadan** jami o‘quv yili davomida **200 dan ortiq** tadbirlar belgilanib, hamkor tashkilotlar bilan birgalikda amalga oshirildi. Ushbu tadbirlarga **14357 nafar** talaba va **152 nafar** pedagog-xodimlar jalb etildi.

Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi tomonidan 2021-2022 o‘quv yili davomida pedagog-xodim va talaba-yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida fakultetlar va kafedralar kesimida amalga oshiriladigan tadbirlar rejasi hamda Buxoro

viloyat OITSga qarshi kurashish markazi bilan hamkorlikda **"Biz OITSga qarshimiz!"** mavzusida o'tkaziladigan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib tasdiqlandi. Giyohvandlikning oldini olish va talaba-yoshlar hamda ishchi xodimlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, OIV/OITSni oldini olish, Oilada tibbiy madaniyatni oshirish, ayollarning reproduktiv salomatligini mustahkamlash maqsadida o'quv yili davomida **220 ta "OITS-asr vabosi", "Giyohvandlik asr vabosi", "Sog'lom turmush - farovon hayot", "Giyohvandlikka qarshi kurashish hammamizning burchimiz", "Biz - sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz", "Bu illat balosidan ogoh bo'ling", "Giyohvandlikdan saqlaning" va "OIST infeksiyasi haqida tushuncha, uning yuqish yo'llari va profilaktikasi", "Erta turmushga chiqishning salbiy oqibatlari", "Giyohvandlikdan saqlaning" va "OITS infeksiyasi haqida tushuncha, uning yuqish yo'llari va profilaktikasi", "Sog'lom turmush – farovon hayot", "Giyohvandlik asr vabosi"** mavzularda tadbirlar belgilangan va reja asosida amalga oshirildi.

2021 yil sentabr oyidan hozirgi kunga qadar fakultetlar kesimida tahlil qilganda Tabiiy fanlar fakulteti 17 ta, San'atshunoslik fakulteti 15 ta, Pedagogika fakulteti 12 ta, Jismoniy madaniyat fakulteti 18 ta, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti 19 ta, Fizika-matematika fakulteti 18 ta, Agronomiya va biotexnologiya fakulteti 15 ta, Iqtisodiyot va turizm fakulteti 15 ta, Tarix va madaniy meros fakulteti 14 ta, Xorijiy tillar fakulteti 13 ta, Filologiya fakulteti 16 ta, Axborot texnologiyalari fakulteti 18 ta tadbir amalga oshirilgan. Tadbirlarda Buxoro viloyat OITSga qarshi kurashish markazi vakillari hamda IIB xodimlari tomonidan giyohvandlik, ichkilikbozlik,tamaki chekish kabi illatlarning oldini olish va uning salbiy oqibatlari to'g'risida so'z yuritildi. Tadbirlarda ishtirok etgan talabalar soni 14357 nafarni tashkil etadi. Talabalarning faol qatnashishlari fakultet dekan o'rinbosarlari tomonidan ta'minlandi.

Bundan tashqari viloyat Ichki ishlar boshqarmasi, viloyat prokuraturasi, viloyat va shahar Adliya boshqarmasi, viloyat OITSga qarshi kurash markazlari bilan hamkorlikda universitet miqyosida **23 ta tadbir** amalga oshirilgan. Ushbu tadbirlar viloyat radiokompaniyasida va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi «Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga muvofiq har haftaning seshanba kuni **"Salomatlik uchun 5000 qadam"** shiori ostida yurish marafoni tashkil etildi. Ayni vaqtga qadar yurish marafoniga 7654 nafar pedagog-xodim va talabalar jalb etildi. Bundan tashqari har haftaning juma kuni universitet rektorining tashabbusi bilan velo-marafon tashkil etilgan bo'lib doimiy ravishda universitet hamda viloyatdagi OTM pedagog-xodimlari ishtirok etmoqda. Shuningdek, talabalar turar joyida har tong pedagog-tarbiyachilar tomonidan salomatlik uchun tonggi badantarbiya mashg'ulotlari joriy qilingan.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini mazmun-mohiyati va ahamiyatini talaba-yoshlar va pedagog xodimlar orasida tushuntirish bo'yicha targ'ibot tadbirlari amalga oshirilib, qonun hujjatlari mazmun-mohiyati universitetning **@MANAVIUATLI INSONLAR - rasmiy kanalida** yoritib borilmoqda.

26-iyun – giyohvandlikka qarshi kurash kuni munosabati bilan universitet talaba-yoshlari o'rtasida "Yoshlar giyohvandlikka yo'q deydi" shiori ostida rasmlar va insho tanlovi o'tkazildi. Tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan talabalar Diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi. Tanlov natijalari hamda o'tkazish jarayoni **@MANAVIUATLI INSONLAR** - rasmiy kanalida keng yoritib borildi.

Joriy yilning 26 iyun kuni viloyat hokimligi tomonidan "Yangi O'Zbekiston yoshlari birlashaylik!" shiori ostida "Biz yoshlar giyohvandlikka qarshimiz" shiori ostida "Toqi Sarrafon" majmuasida tashkil etilgan ko'rganzmada universitet talabalarining ijodiy ishlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Jaaryon viloyat ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi va ijtimoiy rolik tayyorlandi.

Biz ko'pincha talabamiz zalolatga ketgandan keyin xabar topib, keyin uni guruhma-guruh yurib, muhokama qilishga o'rganib qoldik. Aslini surishtirsak, bunday xunuk holatga bizning loqaydligimiz, befarqligimiz ham sabab bo'lgan bo'ladi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo'yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitetda giyohvandlik, VICH, OITS, chekish va boshqa yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar qoniqarli ekanligi ta’kidlandi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. Universitetda giyohvandlik, VICH, OITS, chekish va boshqa yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi masala yuzasidan Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha Birinchi prorektor A.Amonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barcha fakultet pedagogik jamoasi va talaba-yoshlari o‘rtasida giyohvandlik, Vich, OITS, chekish va yuqumli kasalliklarni oldini olish borasida viloyat huquq-tartibot organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda 2022-2023 o‘quv yilida olib boriladigan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin va qat’iy nazorat ostida amalga oshirilsin (mas’ul: A.Amonov, dekanlar, jamoat tashkilotlari rahbarlari. Muddat: Yangi o‘quv yilidan boshlab doimiy).

3. Giyohvandlikka qarshi kurash va uni oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi masala fakultet Ilmiy kengash yig‘ilishlarida muntazam muhokama etib borilsin (mas’ul: Dekanlar, ilmiy kengash kotiblari).

4. Universitet saytida va ijtimoiy tarmoqlardagi kanal va sahifalarida giyohvandlik, chekish va yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablari va halokatli oqibatlari to‘g‘risida maqolalar, hikoya va ocherklar berib borilishiga alohida e’tibor qaratilsin (mas’ul: A.Amonov, S.Xalilov).

Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha Birinchi prorektor A. Amonov zimmasiga yuklatilsin.

## III. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:

### 3.1. 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risida

**ESHITILDI: R.Jumayev** (*O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor*) kengash a’zolariga 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risida axborot berdi. 2022/2023 o‘quv yilida universitetda jami **76** ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishi kunduzgi shaklda talabalar tahsil olishi rejalashtirilgan. Bakalavriat kunduzgi ta’lim shakli 1-kursda **62** ta, 2-kursda **45** ta, 3-kursda **56** ta, 4-kursda **45** ta ta’lim yo‘nalishlari hamda 1-kursda **42** ta, 2-kursda **28** ta magistratura mutaxassisliklari mavjud.

Universitetda 2022/2023 o‘quv yilida tahsil oladigan talabalarning umumiy kontingenti 24 600 (bakalavriat – 23 440 nafar, magistratura – 1160 nafar) nafarni tashkil etishi (qo‘shimcha qabul, 5 yillik mehnat staji, 2-mutaxassislikdan tashqari) kutilmoqda.

Mavjud barcha yo‘nalishlar (kunduzgi, sirtqi) 2-4 kurslar va magistratura mutaxassisliklari uchun ishchi o‘quv rejalari kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan holda tayyorlandi.

1-2-kurslar uchun o‘quv rejalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘risida”gi xatiga asosan mutaxasslik kafedra professor-xodimlari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining takliflarini inobatga olgan holda kredit-modul tizimi asosida tayyorlanmoqda (Loyihalar tayyor, tasdiqlanmagan). Ishchi o‘quv rejalar asosida yangi o‘quv yili uchun universitetning umumiy yuklamasi hisoblanmoqda.

Kafedralar tomonidan yangi o‘quv yili uchun dars soatlari hajmi tayyorlangan. Qisqa muddatda professor o‘qituvchilarning dars soatlari taqsimoti tayyorlanib pedagog xodimlarga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Universitetda 2022/2023 o‘quv yilida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Mutaxassislik kafedralar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘risida”gi xatining 8-ilovasiga asosan o‘quv rejalar va fan dasturlarining loyihalari ishlab chiqilgan va universitetda tuzilgan ekspertiza komissiyasiga taqdim etilgan.

Kafedrada faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar tomonidan tegishli fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy hujatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, fakultetlar tomonidan tasdiqlangan hamda umiversitet metodik kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 6-avgustdagi Hay’at majlisida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, kursdan-kursga o‘tkazish buyruqlari lotin yozuvi asosida amalga oshirilmoqda. Talaba shaxsiy varaqasi, reyting daftarchasi va qaydnomalari to‘ldirildi.

Buxoro davlat universitetida 2021/2022 o‘quv yilida bitiruvchi talabalar soni 3980 nafarni tashkil qiladi. Bitiruvchilar uchun oliy ma’lumot to‘g‘risidagi bakalavr va magistr diplomlarini rasmiylashtirishni amalga oshirish uchun http.\\hemis.buxdu.uz platformasiga bitiruvchilarning ma’lumotlari kiritildi.

Universitetda Uniwork platformasi faoliyat yuritib, mazkur tizimda talabalar bilimini baholashning elektron qaydnoma orqali onlayn tarzda amalga oshirilgan.

Universitet kredit-modul tizimiga o‘tganligi sababli 2021/2022 o‘quv yiliga 1-2-kurs talabalari HEMIS platformasiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan hamda o‘qitiladigan fanlardan resurslar va nazorat baholari kiritib borilgan. Hozirda universitetdagi barcha talabalar HEMIS va UNIWORK platformalarida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Yangi o‘quv yili uchun o‘qitiladigan fanlardan o‘quv kontentlarni shakllantirish ishlari boshlangan.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitetda 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risidagi ma’lumot qoniqarli deb topildi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalar to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.
3. 2022/2023 o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar va dolzarb vazifalarning natijalari yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig‘ilishlarida muhokama qilinsin va ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas’ullar: fakultet dekanlari; muddat: bir oy davomida).
4. Universitet professor-o‘qituvchilarining 2022-yilda reja asosida malaka oshirish kurslariga qatnashishlari ta’minlansin. (mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari)
5. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**3.2. Buxoro davlat universitetining yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning ta’lim shakllari va o‘qitish tillari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.Jumayev** (O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor) kengash a’zolariga Buxoro davlat universitetining yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning ta’lim shakllari va o‘qitish tillari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida axborot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2022 yil 15 iyundagi** «Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida»gi **ПҚ-279-son** qarori hamda «2022/2023 o‘quv yili davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat

buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida»gi **Ф-60-son** farmoyishi qabul qilinib, ushbu qaror va farmon bilan mamlakatimizdagi barcha davlat davlat oliy ta’lim muassasalariga davlat buyurtmasi parametrlari tasdiqlandi. 2022/2023 o‘quv yili qabul jarayonini tashkil etish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi.

2022/2023 o‘quv yili uchun o‘qishga qabul qilish parametrlari bo‘yicha Buxoro davlat universitetida **3754 nafar** (**659 nafar** grant, **3095 nafar** to‘lov-kontrakt asosida) talabani o‘qishga qabul qilish rejalashtirilgan.

а) **bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha - 3370 nafar:**

**kunduzgi** ta’lim shakliga – **62 ta (+9)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha **2105 nafar** (*565 nafar davlat granti, 1540 nafar to‘lov-kontrakt asosida*, **1799 nafar** o‘zbek, **281 nafar rus, 25 nafar tojik tillari);**

**sirtqi ta’lim shakliga** – **25 та (+9)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha **780 nafar to‘lov-kontrakt asosida, 705 nafar o‘zbek, 75 nafar rus tillari);**

**masofaviy ta’lim shakliga** – **2 та (+2)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha **100 nafar to‘lov-kontrakt asosida);**

**kechki** ta’lim shakliga – **15 ta (+4) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 385 nafar to‘lov-kontrakt asosida);**

б) **magistrlar tayyorlash bo‘yicha – 42 ta (+11) mutaxassislik bo‘yicha 384 nafar** (***94 nafar davlat granti, 290 nafar to‘lov-kontrakt asosida,*** **366 nafar o‘zbek, 18 nafar rus tillari**).

Alohida iqtidor talab etiladigan **10 ta ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 255 nafar (kunduzgi-95 nafar, sirtqi-95 nafar, kechki-65 nafar) qabul kvotasi shakllantirilgan. www.buxdu.uz rasmiy veb-saytda** imtihon dasturlari, abitiruyentlarning imtihon topshirish kunlari, internet orqali translatsiya qilish imkoniyatlari yaratiladi.

2022/2023 o‘quv yili bakalavriat qabul kvotasining Bilim sohalari bo‘yicha taqsimoti, jumladan, San’at va gumanitar fanlarda **20,6 %**, *Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborotda* **16,3 %**, *Biznes, boshqaruv va huquqda* **12,9%**, *Tabiiy fanlar, matematika va statistikada* **11,9%**, *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida* **6,5 %**, *Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalarida* **5,6 %**, *Qishloq, o‘rmon, baliq xujaligi va veterinariyada* **7,3 %**, *Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minotda* **2,1 %**, *Xizmatlarda* **16,8 %** ni tashkil etadi.

Abiturentlarga imtihon o‘tkazish kunlari rasmiy veb-saytda, ijtimoiy tarmoqda e’lon qilinib boriladi, sms-xabarnoma yuboriladi, qabul komissiyasining faoliyati uchun **Murojaatlar markazi ("Koll markaz")** tizimi yo‘lga qo‘yildi. BuxDUda Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish bo‘yicha Buxoro viloyat hokimligining “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, imtihonlar o‘tkaziladigan barcha joylar IP kameralar bilan ta’minlanadi, onlayn kuzatish amalga oshiriladi.

### 2022/2023 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalari ta’lim shakli bo‘yicha davlat buyurtmasi asosida o‘qishga qabul qilish parametrlarining ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitish tillari bo‘yicha TAQSIMLANISHI

| № | Ta’lim shakli | Ta’lim yo‘nalishlar (mutaxassisliklar) soni | Jami | Davlat grantlari asosida | | | To‘lov-kontrakt asosida | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Jami | shu jumladan: | | Jami | shu jumladan: | |
| | | | | | o‘zbek | rus | | o‘zbek | rus |
| **Buxoro davlat universiteti** | | | | | | | | | |
| 1 | Kunduzgi | 62 | 2105 | 565 | 471 | 94 | 1540 | 1328 | 212 |
| 2 | Sirtqi | 25 | 780 | 0 | 0 | 0 | 780 | 705 | 75 |
| 3 | Masofaviy | 2 | 100 | 0 | 0 | 0 | 100 | 100 | 0 |
| 4 | Kechki | 15 | 385 | 0 | 0 | 0 | 385 | 385 | 0 |

| Bakalavr jami: | | | 3370 | 565 | 471 | 94 | 2805 | 2518 | 287 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | Magistratura | 42 | 384 | 94 | 92 | 2 | 290 | 274 | 16 |
| Jami universitet bo‘yicha | | | 3754 | 659 | 563 | 96 | 3095 | 2792 | 303 |

**Bilim sohalari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasining taqsimoti (Bakalavriat)**

| № | Bilim sohalari | JAMI | % |
|---|---|---|---|
| 1. | San’at va gumanitar fanlar | 654 | 20,12 |
| 2. | Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot | 560 | 16,47 |
| 3. | Biznes, boshqaruv va huquq | 520 | 15,29 |
| 4. | Tabiiy fanlar, matematika va statistika | 430 | 12,65 |
| 5. | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari | 215 | 6,32 |
| 6. | Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari | 185 | 5,44 |
| 7. | Qishloq, o‘rmon, baliq xujaligi va veterinariya | 220 | 6,47 |
| 8. | Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot | 85 | 2,50 |
| 9. | Xizmatlar | 501 | 14,74 |
| | **Jami:** | **3370** | |

Universitetda 2022/2023 o‘quv yilida ta’limning kunduzgi shaklida 10 ta yangi yo‘nalishlar ochildi:

1.Yurisprudensiya
2.Raqamli iqtisodiyot
3.Inson resurslarini boshqarish
4.Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
5.Siyosatshunoslik
6.Sotsiologiya
7.Kimyoviy texnologiya
8.Muqobil energiya manbalari
9.neft-gazkimyo sanoati texnologiyalari
10. Filologiya: tojik tili

Joriy yilning 1-iyul sanasidan magistratura uchun qabul jarayonlari boshlandi, jarayon 30-iyul sanasiga qadar davom etadi. Talabalar(abituriyentlar) http://magistr.edu.uz platformasi orqali onlayn ro‘yxatdan o‘tadilar.

Joriy yilning 30-iyungacha bo‘lgan davr oralig‘ida Call-markaziga 230 dan ortiq abituriyentlar va ularning ota-onalari tomonidan murojaatlar kishi kelib tushdi. Murojaatlarning aksariyati talim yo‘nalishlari nomi, ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha va 5 yillik ish stajiga ega bo‘lganlarning o‘qishga qabuli bo‘yicha ma’lumotlar so‘rab murojaat etdilar. Bundan tashqari 100 dan ortiq fuqaro Call-markaz ning ishonch telefonlariga qo‘ng‘iroq qilib, o‘zlari uchun kerakli bo‘lgan savollarga javob olishga harakat qilishdi.

Murojaatchilarning ko‘pchiligi my.dtm.uz saytining uzoq muddat davomida ishlamaganligi yuzasidan bo‘ldi va holat ularga tushuntirildi.

Ikkinchi ta’lim yuzasidan berilgan savollarga 15-iyuldan keyin bog‘lanib javob olish kerakligi tushuntirildi.

Shu bilan birga, murojaatchilar sirtqi ta’lim shaklining necha yil muddatda davom etishi ehaqida ham ma’lumotlarni oldilar.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Universitetining yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning ta’lim shakllari va o‘qitish tillari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb topildi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universitetining yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning ta’lim shakllari va o‘qitish tillari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro davlat universitetining yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning ta’lim shakllari va o‘qitish tillari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi o‘quv ishlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. Buxoro davlat universitetining yo‘nalishlar va mutaxassisliklarning ta’lim shakllari va o‘qitish tillari bo‘yicha 2022/2023 o‘quv yili qabul kvotasini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig‘ilishlarida muhokama qilinsin va ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas’ullar: fakultet dekanlari; muddat: bir oy davomida).

5. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**3.3. Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida 2022/2022 o‘quv yili yakunlari va 2022/2023 o‘quv yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to‘g‘risida**

**ESHITILDI: M. I. Daminov** ***(BuxDU pedagogika instituti direktori)*** kengash a’zolariga Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida 2022/2022 o‘quv yili yakunlari va 2022/2023 o‘quv yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to‘g‘risida axborot berdi.

**1.** Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 6 apreldagi 188-sonli qarori bilan tashkil etilgan. Institutda kunduzgi ta’lim shaklida 19 ta, sirtqi ta’lim shaklida 11 ta, kechki ta’lim shaklida 4 ta ta’lim yo‘nalishlari va magistraturada 8 ta mutaxassisliklar mavjud. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarning har biri bo‘yicha o‘quv-me’yoriy hujjatlar; o‘quv rejalari (27 ta), ishchi o‘quv rejalari (15 ta), fan dasturlari, o‘quv grafiklari Buxoro dalat universiteti o‘quv metodik Kengashining 2021 yil 30 avgustdagi 1-sonli majlis bayoni bilan ma’qullangan va institut Kengashiga tasdiqlashga tavsiya etilgan hamda ushbu Kengashning 2021 yil 30 avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan. O‘quv-me’yoriy hujjatlarining tasdiqlangan variantlari institutning mavjud fakultet dekanatlari hamda kafedralariga taqdim etilgan bo‘lib, shu asosida o‘quv jarayonlari olib borilmoqda.

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti 2021/2022 o‘quv yilida o‘quv jarayonlari uchun foydalaniladigan barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli buyrug‘i asosida tayyorlangan.

Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida bakalavr ta’lim yo‘nalishlarining kunduzgi shaklida 2349 nafar, kechki ta’lim shaklida 218 nafar, sirtqi ta’lim shaklida 1055 nafar, magistratura mutaxassisligida 292 nafar, jami 3914 nafar talaba tahsil oladi.

Institutda 2021/2022 o‘quv yilida 1-bosqichga qabul qilingan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari talabalari uchun kredit-modul tizimida o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnoma ishlab chiqildi va o‘quv jarayoniga tadbiq etildi.

Institutda 2021/2022 o‘quv yilini samarali tashkil etish uchun barcha choralari ko‘rilgan hamda moddiy-texnik ta’minoti yetarli darajada ta’minlangan va yaxshilab borilmoqda.

Institutning bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha talabalar bilim va o‘zlashtirish darajasiga qo‘yiladigan talablar kadrlar buyurtmachilari bilan

birgalikda ishlab chiqish mexanizmini yo‘lga qo‘yilgan, ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejalari va fan dasturlari ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqildi va o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirildi.

Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha 144 ta va magistratura mutaxassisliklar bo‘yicha 72 ta fan o‘qitiladi. Barcha fanlarning namunaviy va ishchi o‘quv dasturlari tayyorlangan, tasdiqlangan.

Barcha ta’lim yo‘nalishi va mutaxassisliklari uchun fanlar katalogi ishlab chiqildi, fanlar katalogiga kiritilgan majburiy va tanlov fanlarining kodlarini xalqaro standartlar tamoyillariga tayangan holda kodlandi.

**2.** Institutda o‘qitishning kredit-modul tizimi joriy etilganlik holati tahlili. Institutda kredit modul tizimi asosida professor-o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini olib borishlari uchun barcha me’yoriy-huquqiy hujjatlar tayyorlangan va tasdiqlangan.

Institutda professor-o‘qituvchilarning interfaol pedagogik usullar yordamida dars mashg‘ulotlarini olib borishlari va talabalarning mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishlari uchun 2 ta kompyuter sinflaridan o‘quv jarayoni va o‘quv jarayonidan so‘ng ham foydalanish yo‘lga qo‘yilgan.

2021-2022 o‘quv yilidan boshlab institutning barcha bosqich talabalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar HEMIS – axborot va boshqaruv tizimiga joylashtirildi.

Kredit-modul tizimi talablaridan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich takomillashtirib borilmoqda (fanlar bo‘yicha tegishli professor-o‘qituvchilarni tanlash imkoniyatini yaratish, halqaro standartlaridan kelib chiqib o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish).

Institut professor-o‘qituvchilariga kredit-modul tizimi, ta’lim resurslari va unda ishlash ko‘nikmalari bo‘yicha seminar-treninglar o‘tkazildi. 1-bosqich talabalarini kredit-modul tizimida o‘qitishni, ta’lim resurslaridan foydalanishlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirishni hamda ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etildi.

Institutning HEMIS axborot tizimi hamda moodle.buxdupi.uz manzilli LMS elektron tizim orqali talabalarni darslarda ishtirokini nazorat qilishning samaradorligini oshirishga erishilmoqda, shuningdek tizimida ma’lumotlar muntazam yangilab borilmoqda.

Institut ARM fondi 8300 tani tashkil qiladi. Shundan, o‘quv darsligi 2300 ta, o‘quv qo‘llanma 3500 ta, elektron darsliklar 2186 tani, audio darslar 750 ta, video darslar 128 ta, uslubiy qo‘llanmalar 1007 tani tashkil qiladi. Elektron kitoblarning bazasi xajmi 30 GB, ARMAT dasturidagi elektron bibliografik tavsiflar soni umumiy fondning 78 % ini tashkil qiladi.

Ta’lim muassasalarida Institut kafedralari tomonidan 5 ta kafedra filiallari tashkil etilgan. Mazkur filiallarda oliy toifali va yuqori malakaga ega mutaxassislari tomonidan amaliy dars mashg‘ulotlari olib borilmoqda.

**3.** 2021/2022 o‘quv yilining kuzgi-bahorgi semestrlari yakunlari bo‘yicha o‘quv yili har ikkala semestrida belgilangan vazifalar, xususan ta’lim sifatini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, o‘quv jarayonini zamonaviy informatsion texnologiyalar bilan boyitish, ta’limni kredit-modul tizimida tashkil etish, mustaqil ta’limni o‘quv jarayonining bir qismi sifatida joriy qilish, o‘quv jarayonini zamonaviy tashkil etish kabilar institut jamoasining asosiy vazifasi deb belgilangan.

2021/2022 o‘quv yilining attestatsiya jarayonlari quyidagicha tashkil qilindi. 2021/2022 o‘quv yilida institut talabalar bilimini baholash Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda №3069 qayd raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) 19-2018-son buyrug‘i, shuningdek Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 29-sentabrdagi buyrug‘i hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 824-sonli Qarori asosida amalga oshirildi. Unga binoan har bir fandan talabalarning bilimi kredit baholash orqali amalga oshirildi.

Barcha attestatsiya jarayonlarining o‘tkazilish grafiklari fakultet dekanlari hamda o‘quv-uslubiy bo‘lim tomonidan ishlab chiqilgan.

Yakuniy nazoratlari o‘tkazilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 26-sentabrda №3069 buyrug‘iga muvofiq fan o‘qituvchisi ishtirokisiz o‘tkazildi.

Institutda talabalar bilimini baholashda HEMIS axborot tizimi orqali xolis va adolatli baholanishi ta’minlandi va quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- har bir yaratilgan kurslar tarkibida joriy nazoratlarni baholash uchun o‘qituvchilar topshiriqlar joylashtirib bordilar. Talabalar mazkur topshiriqlarning javobini belgilangan muddatda elektron (fayl, matn, rasm, video va h.k.) shaklda yubordilar. Fan o‘qituvchisi tomonidan o‘z vaqtida talabalar baholanib borildi;
- fanlardan yakuniy nazorat turlarini o‘tkazish ijtimoiy fanlar uchun test shaklida, alohida iqtidor talab qiladigan fanlardan amaliy imtihon shaklida va qolgan barcha fanlar uchun yozma ish tarzida olish tartibi ishlab chiqildi va amalga oshirildi;
- Ijtimoiy fanlardan yakuniy nazoratlar institutning HEMIS axborot tizimida test topshirish oqali amalga oshirildi. Talabalar student.buxdupi.uz tizimiga talabalar o‘zlarining login parollari orqali kirib, yakuniy nazoratlarini topshirish imkoniyatlari yaratildi.

2021/2022 o‘quv yilining kuzgi-bahorgi o‘quv jarayonining attestatsiya natijalari quyidagicha:

| № | Fakultet nomi | Talaba soni | I-turdan qarzdorlik | II-III Turda qayta topshir-gan talaba-lar | Mavjud qarzdor talablar soni |
|---|---|---|---|---|---|
| **Kuzgi o‘quv jarayon** | | | | | |
| 1 | **Tabiiy-gumanitar fanlar** | **1073** | **347** | **273** | **74** |
| | Shundan kechki ta’limda | 37 | 9 | 8 | 1 |
| 2 | **Pedagogik ta’lim** | **475** | **364** | **304** | **60** |
| | Shundan kechki ta’limda | 61 | 59 | 29 | 30 |
| 3 | **Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim** | **490** | **219** | **216** | **3** |
| | Shundan kechki ta’limda | 124 | 71 | 71 | 0 |
| **4** | **Harbiy ta’lim** | **135** | **11** | **11** | **0** |
| **5** | **Magistratura** | **286** | **35** | **13** | **22** |
| **6** | **Sirtqi** | **1057** | | **4** | **2** |
| | **Jami** | **3516** | **976** | **821** | **161** |
| **Bahorgi o‘quv jarayon** | | | | | |
| № | Fakultet nomi | Talaba soni | I-turdan qarzdorlik | II-III Turda qayta topshir-gan talaba-lar | Mavjud qarzdor talablar soni |
| 1 | **Tabiiy-gumanitar fanlar** | **1068** | **582** | **534** | **48** |
| | Shundan kechki ta’limda | 37 | 12 | 12 | 0 |
| 2 | **Pedagogik ta’lim** | **475** | **187** | **100** | **87** |
| | Shundan kechki ta’limda | 61 | 45 | 33 | 12 |
| 3 | **Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim** | **490** | **325** | **175** | **0** |
| | Shundan kechki ta’limda | 124 | 65 | 59 | 0 |

| № | Fakultet nomi | Talaba soni | I-turdan qarzdorlik | II-III Turda qayta topshir-gan talaba-lar | Mavjud qarzdor talablar soni |
|---|---|---|---|---|---|
| 4 | Harbiy ta'lim | 135 | 5 | 5 | 5 |
| 5 | Magistratura | 292 | 46 | 14 | 32 |
| 6 | Sirtqi | 1054 | 120 | 57 | 63 |
| | Jami | 3514 | 1265 | 885 | 235 |

**4.** Hozirgi kunga qadar institut professor-oʻqituvchilar tomonidan **7 ta** darslik, **13 ta** oʻquv qoʻllanma, va **20 ta** dasturiy mahsulotlar uchun guvohnomalar shu qisqa vaqt mobaynida qoʻlga kiritildi.

**5.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutiga biriktirilgan Buxoro shari hamda Buxoro tumanidagi 100 ta maktab bitiruvchilarining "Kompyuter savodxonligi"ni oshirish maqsadida Institut tomonidan oʻquv kurslari tashkil etilda. Bunga koʻra "Kompyuter savodxonligi" kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan umumta'lim maktabining 11-sinf oʻquvchilariga "Sertifikat" taqdim qilish yoʻlga qoʻyildi. Oʻquv kursida 4886 nafar oʻquvchidan jami 4156 nafari ishtirok etib, oʻz sertifikatlarini yuklab olishdi.

**6.** 2022/2023-oʻquv yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar. Abituriyent va talabalar uchun oliy ta'lim bilan oʻzaro munosabatlarining barcha bosqichlarida xizmatlarni ishlab chiqish va masofadan xizmat koʻrsatish. Keng turdagi ixtisoslashtirilgan dasturlarga virtual kirishni amalga oshirish, shuningdek, shaxsiy mobil qurilmalar uchun shaxsiy kabinet versiyasini yaratish.

Institutning oʻquv jarayoniga IT xizmatlarni integrasiyalashuvini ta'minlash. Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integrasiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun ta'limiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Kadrlar iste'molchilarining taklif va tavsiyalarini davlat talablari bilan uygʻunlashtirish orqali oʻquv reja va fan dastur (sillabus) larini takomillashtirish. Ta'lim yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklarini amaldagi oʻquv reja va fan dastur (sillabus)larini TOP-1000 reytingga kiruvchi OTMlar tajribalariga moslashtirish boʻyicha "Ishchi guruh" tashkil etish. Institutda kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda ta'lim yoʻnalishlari va magistratura mutaxassisliklarining oʻquv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish. Tarmoqlar va mehnat bozori ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va talablariga muvofiq fan bloklari tarkibi, oʻquv yuklama hajmini optimallashtirish.

Kafedralar tomonidan tasdiqlangan oʻquv rejalari va ishchi oʻquv rejalari asosida 2022/2023 oʻquv yili uchun oʻquv yuklamasi hajmini shakllantirish. Kafedraning 2022/2023 oʻquv yili uchun shakllangan oʻquv yuklamasi hajmidan kelib chiqib, kafedraning shtat birligini aniqlash. Institut boʻyicha oʻquv yuklamalari hajmi va mavjud shtat birliklari miqdori asosida professor-oʻqituvchilarning lavozimlari boʻyicha oʻquv yuklamalari me'yorini belgilash va tasdiqdan oʻtkazish. Professor- oʻqituvchilarning salohiyatini hisobga olgan holda oʻquv yuklamalarini taqsimlash va shaxsiy ish rejani tasdiqlash.

Kredit-modul tizimiga oid manbalar, videolar hamda ma'lumotlarni professor-oʻqituvchilarga elektron shaklda etkazish.

Institut professor-oʻqituvchilari ishtirokida mutaxassislarni jalb etgan holda respublika va xalqaro miqyosda vebinarlar, oʻquv va seminar treninglarni tashkil qilish va oʻtkazish.

Dastur va fan katologlarini ishlab chiqish. Har bir fan boʻyicha onlayn oʻquv majmualarini sifatli tayyorlash. Majmualarni texnik va mazmun jihatdan ekspertizadan oʻtkazish. Yuqori kurslar uchun majmualarni platformaga joylashtirish. Video va audio darslarni tayyorlash boʻyicha xonalarni tayyorlash, zaruriy texnik vositalar bilan ta'minlash, professional mutaxassislarni jalb etish.

Har bir fakultet, ta’lim shakli, ta’lim yo‘nalishi kesimida namunaviy videodarslarni tayyorlash va ekspertizadan o‘tkazish. Universitetda fakultetda videodarslarni tasvirga olish bo‘yicha studiyalarni tashkil qilish.

2022/2023 o‘quv yilida dars beradigan professor-o‘qituvchilarni AT, xorijiy tillarni o‘zlashtirganlik darajasi, kasbiy kompetentligini o‘rganish va komissiya bayonnomalari orqali rasmiylashtirish tashkil qilish. Ishga qabul qilinadigan pedagog xodimlar uchun o‘quv-me’yoriy hujjatlar, masofaviy ta’lim, AT, xorijiy til, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda xorijiy hamkorlik bo‘yicha o‘quvlarni tashkil etish.

Institut rasmiy sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari manzillarini har bir talabaga etkazish va ulardan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomalarni ishlab chiqish va taqdim qilish. Institut rasmiy saytidagi ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish, doimiy yangilash, talabalarning muloqot qilishlari uchun yangi axborot maydonlarini tashkil qilish.

O‘quv materiallarini fanlar xususiyatidan kelib chiqib, tizimga joylashtirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun HEMIS tizimi bo‘yicha seminarlar va qisqa muddatli o‘quv kurslarini tashkil qilish. HEMIS tizimini sifatli kontent bilan to‘ldirish. HEMIS platformasini joriy qilish asosida talabalar bilimini xolis va adolatli baholanishini ta’minlash, ularning mustaqil bilim olish faoliyatini faollashirish. HEMIS mexanizmlarini joriy etish asosida talabalarni sirtdan o‘qitishda ta’lim sifatini ta’minlashga erishish, istiqbolda masofali o‘qitish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, o‘quv rejalari va dasturlari mazmuni hamda mutaxassislik fanlari bo‘yicha soatlar taqsimotini kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlikda fan va texnologiyalarning so‘nggi yutuqlari asosida shakllantirish.

OTMlar va ta’lim muassasalari aloqalarini mustahkamlash hamda buyurtmachilar ehtiyojlaridan kelib chiqib kadrlarni tayyorlash va ish bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish.

Institut talabalari orasida dars jarayonlarining sifatini oshirish borasida turli xildagi so‘rovnomalarni olib borish. Institut veb sayti va ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallari orqali so‘rovnomalarni tashkil qilish va natijalar oshkoraligini ta’minlash. Institut talabalari tomonidan bildirilgan salbiy omillarni bartaraf etish va eng yaxshi fikrlarni ta’lim jarayoniga joriy etish.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bilan hamkorlikda Registrator ofisini tashkil etish. Registrator ofisi uchun maxsus xona ajratish hamda zaruriy texnik-dasturiy vositalar bilan ta’minlash. Registrator ofisi rahbari lavozimiga nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarida ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassisni jalb etish uchun ochiq tanlov e’lon qilish.

O‘quv adabiyotlariga grif berish va nashr etish tartibini ishlab chiqish. 2022/2023 o‘quv yili uchun adabiyotlar nashr rejasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlatish. 2022/2023 o‘quv yili uchun adabiyotlar nashr rejasi asosida o‘quv adabiyotlarini tayyorlash va institut nashr ruxsatnomasi (grifi) asosida nashr ettirish. O‘quv adabiyotlarining to‘liq elektron shaklga o‘tkazish hamda hamda «*Elektron kutubxona*» platformasini ishga tushirish.

Yangi o‘quv yilida o‘qitiladigan fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlanganlik darajasi bo‘yicha ma’lumotlarni umumlashtirish, zarur o‘quv-uslubiy adabiyotlarni xarid qilish bo‘yicha takliflarni shakllantirish.

Universitet ichki axborot muhiti va global videoxostinglarga joylashtirilishi bo‘yicha ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklar, kurslar, har bir fan kesimida muntazam monitoringini yuritish. Xorijiy tilda yaratilgan adabiyotlardan talabalarning foydalanish imkoniyatini oshirish.

Pedagogika instituti professor-o‘qituvlarining malaka oshirish monitoringini o‘tkazish. Rahbar va professor-o‘qituvchilarni xorijiy va respublikadagi oliy va ilmiy-tadqiqot muassasalariga stajirovka va malaka oshirishini tashkil etish. Ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda ta’lim jarayoniga videoma’ruzalar, virtual laboratoriya mashg‘ulotlari, masofaviy ta’lim elementlarini va vebinar mashg‘ulotlarni yaratish va qo‘llash mexanizmini ishlab chiqish.va malaka oshirishini tashkil etish. Professor-o‘qituvchilarning kurslarni o‘zlashtirishiga metodik yordam berish.

Pedagog xodimlarni tanlashning xalqaro tanlov mexanizmlari va muddatli shartnomalar tuzishga asoslangan tizimini joriy etish. Har yili kamida 10 nafar professor-o‘qituvchilarni

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalariga malaka oshirishga yuborish. Professor-o'qituvchilar uchun xorijiy ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarida, shuningdek, kadrlar buyurtmachilari bo'lgan tashkilot va korxonalarda stajirovkalar tashkil etish.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining 2-4-kurslari uchun amaliyot dasturlarini kadr iste'molchilari bilan kelishgan holda, kurslar kesimida sifatli tayyorlash va tasdiqlash. Magistratura mutaxassisliklarining 1-2-kurslari uchun amaliyot dasturlarini tayyorlash va tasdiqlash. Talabalar amaliyoti tashkil qilinadigan hamkor ta'lim muassasalari kafedra filiallarini ochish. Talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani rivojlantirib borish va seminarlar o'tkazish. Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar va malakaviy amaliyotlarga korxona va tashkilotlarning malakali mutaxassislarini keng jalb qilish. Bitiruvchi kurs talabalarining amaliyotlarini uzluksiz shaklda bo'lg'usi ish joylarida o'tkazish tizimini yo'lga qo'yish.

Talabalarni mustaqil ta'lim faoliyatini baholash uchun "Portfolio" tizimini ishlab chiqish.

O'quv, ilmiy-metodik adabiyotlar, ilmiy laboratoriya jihozlari, o'quv laboratoriya jihozlari, o'qitishning texnik vositalari va multimedia mahsulotlari ro'yxatini shakllantirish.

Professor-o'qituvchilarni chet tilida dars mashg'ulotlarini tashkil qilish. Xorijiy xamkor oliy ta'lim muassasasalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqalardan yuqori malakali professor-o'qituvchilar, olimlar va mutaxassislarni o'quv jarayoniga jalb qilish.

Ta'limning barcha darajalarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning uzluksizligini ta'minlash.

Talabalar bandligini qo'llab-quvvatlash va o'qishni tugatgandan so'ng ular bilan aloqada bo'lish uchun *"Onlayn bandlik monitoringi (OBM)"* elektron platformasini ishlab chiqish. Bitiruvchilar klubini tashkil etish, tegishli dasturiy hujjatlar harakatlar va rejasini ishlab chiqish.

Institutning raqobatbardoshligini oshirish, xodimlar va talabalar uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan turli ustuvor dastur va loyihalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ommaviy axborot vositalari, elektron va boshqa axborot manbalari orqali takliflar ishlab chiqish va bitiruvchilarga taqdim etish.

## II. Ilmiy ishlar va innovasiyalar yo`nalishi bo`yicha Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida 2021/2022 o'quv yili yakunlari va 2022/2023 o'quv yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to'g'risida

| № | Faoliyat ko'rsatkichlari | 2022 yil 10 iyun holati |
|---|---|---|
| **1.** | **Professor-o'qituvchilarining umumiy soni** | **121** |
| | **Ilmiy salohiyat (%) jumladan:** | **25,6** |
| | fan doktorlari (DSc) soni | 2 |
| | fan doktorlarining (DSc) o'rtacha yoshi | 43 |
| | 40 yoshgacha fan doktorlari (DSc) soni | 1 |
| | fan nomzodlari (PhD) soni | 29 |
| | fan nomzodlarining (PhD) o'rtacha yoshi | 35 |
| | 40 yoshgacha fan nomzodlari (PhD) soni | 18 |
| **2.** | **Bakalavriat yo'nalishlari soni** | **19** |
| | **Bakalavr talabalar soni, jumladan** | **3632** |
| | 1-bosqich | 3234 |
| | 2-bosqich | 164 |
| | 3-bosqich | 135 |
| | 4-bosqich | 99 |
| **3.** | **Magistratura mutaxassisliklari soni** | **8** |
| | 1-bosqich | 292 |
| | 2-bocqich | |
| **4.** | **Xo'jalik shartnomalari umumiy soni** | **31** |
| | Xo'jalik shartnomalarining mablag'i, mln. so'm | 58 |

| | | |
|---|---|---|
| **5.** | **2022 yil 10 iyun holatiga koʻra chop etilgan ilmiy ishlarning umumiy soni, shundan:** | **323** |
| | Respublika ilmiy jurnallarida | 72 |
| | Xalqaro ilmiy jurnallarda | 63 |
| | «Scopus» maʼlumotlar bazasidagi jurnallarda | 1 |
| | Respublika anjuman toʻplamlarida | 95 |
| | Xalqaro anjuman toʻplamlarida | 42 |
| | Darsliklar | 7 |
| | Oʻquv qoʻllanmalar | 13 |
| | Monografiyalar | 8 |
| | Ixtiro, foydali model uchun olingan patentlar soni | 2 |
| | Dasturiy mahsulotlar uchun olingan guvohnomalar soni | 20 |
| **6.** | **«Xirsh» indeksi (h-indeks) 5 va undan yuqori boʻlgan professor-oʻqituvchilar soni** | 20 |
| **7.** | **2022 yilda dissertasiya himoyalari soni prognozi, jumladan:** | |
| | fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun | 1 |
| | falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun | 6 |

Institut faoliyatini boshlaganiga endigina bir yil boʻlganiga qaramasdan ilmiy sohada anchagina yutuqlarga erishib kelmoqda. Hozirgi kunda institutning ilmiy salohiyati 25,6 % ni tashkil qilayotgan boʻlsa, bu kursatkichni yil oxiriga qadar 30% gacha chiqarish rejalari ishlab chiqilgan.

Institut professor-oʻqituvchilari tomonidan 300 dan oshiq ilmiy ishlar chop etildi. Quvonarlisi 130 dan ortiq xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarida chop etilgan. 150 dan oshiq xalqaro va Respublika ilmiy amaliy anjumanlarda ishtirok ham Institut professor-oʻqituvchilari ilmiy sohada qanchalik foal ekanligin koʻrsatib turubdi. 8 ta monografiya, 20 intelektual mulk obyektlari uchun dasturiy guvohnomalar va 2 ta ixtiro, foydali model uchun berilagan patentlar ham shular jumlasidandir.

Institutda faoliyat olib borayotgan ilmiy darajali professor-oʻqituvchilarning ilmiy maktablarni rivojlantirish maqsadida kafedralar negizida jami 10 ta ilmiy-tadqiqot markazlari, “Ustoz-shogird” anʼanalarini davom ettirish maqsadida 32 ta ilmiy toʻgaraklar tashkil etildi. “Taʼlim transformatsiya” jurnali ham institutda oʻz faoliyatini olib bormoqda.

Institutda 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Padagogik taʼlimotlar tarixi hamda 13.00.02 – Taʼlim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosliklari boʻyicha oliy taʼlimdan keyingi taʼlim instituti ochildi;

Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan eʼlon qilinadigan ilmiy loyihalar tanloviga muntazam ishtirokni yoʻlga qoʻyayapmiz, bundan tashqari institut professor-oʻqituvchilari tomonidan 30 ga yaqin xoʻjalik shartnomalari tuzildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097-sonli “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Farmoniga muvofiq, Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida tahsil olayotgan iqtidorli yoshlarni qoʻllab-quvvatlash, iqtidorli talabalarni ragʻbatlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida institut talabalari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion ishlanmalar va loyihalarni ishlab chiqarishga joriy etish hamda ularni har tomonlama ragʻbatlantirish maqsadida Innovatsion gʻoya va ilmiy ishlanmalar tanlovini joriy etildi.

Magistratura mutaxassisligining talabalari orasidan Prezident Stipendiyasiga nomzodlarni saralash va ularni tayyorlash ishlari juda qizgʻin olib borilmoqda.

Shu kungacha Institutimizda 3 ta Respublika miqiyosidagi ilmiy-amaliy va ilmiy-nazariy Konferensiyalar oʻtkazildi va unda Respublikamiznig yetakchi olimlari ishtirolari ishtirok etishdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi “Kimyo va biologiya yoʻnalishlarida uzluksiz taʼlim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4805-son qarori, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining 2021-yil 8-sentyabrdagi “Umumtaʼlim maktablari bitiruvchi sinf oʻquvchilari oʻrtasida kimyo va biologiya fan olimpiadasini tashkil etish va oʻtkazish tartibi toʻgʻrisida”gi 383-son buyrugʻi hamda Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 1-apreldagi 03/35-

01/383-sonli xatiga muvofiq, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti tomonidan viloyatdagi umumta’lim maktablari bitiruvchilari o‘rtasida kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha ko‘p bosqichli (tuman (shahar) - viloyat - oliy ta’lim muassasasi) olimpiadasi o‘tkazildi. Olimpiada natijalariga ko‘ra kimyo va biologiya fanidan 3 nafardan o‘quvchilar muddatdan oldin talabalik baxtiga muyassar bo‘lishdi.

## III. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo`nalishi bo`yicha

Institutda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

**Fakultetlarda “Talabalar teatr studiyalari”, “Quvnoqlar va zukkolar” hamda “Zakovat” klublari, “Sharq gavhari**” maqomchilar ansambli faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Institut tomonidan mazkur yo‘nalishlarni yanada rivojlantirish maqsadida alohida chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan.

Talabalarimiz Respublika va xalqaro darajadagi olimpiada, turli tanlov va musobaqalarda faol ishtirok etishib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Jumladan: Fozilova Shahrizoda “Yangi O‘zbekistonni o‘zimiz, o‘z qo‘llarimiz bilan bunyot etamiz” shiori ostidagi Respublika esselar tanlovida faxrli 3-o‘rin, Abdullaev Aziz “Ilm fan sohasidagi eng yaxshi innovator” ko‘rik-tanlovining Respublika bosqichi g‘olibi, Imomova Feruza Chizma-geometriya fani bo‘yicha Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan Osiyo olimpiadasida faxrli 2-o‘rin sohibi, Muzaffarov Shahzod **Boks** sport turi bo‘yicha 54 kg vazn toifasida Osiyo chempioni, Ruminiyada o‘tkazilgan jahon chempionati musobaqalarida Oltin medal sohibi, Turdiev To‘lqinbek **dzyudo** sport turi bo‘yicha Osiyo kubogida 90 kg vazn toifasida 1-o‘rin sohibi, 2022 yil 5-6 aprel kunlari U. Murodov xotirasi o‘tkazilgan yoshlar o‘rtasida Dzyudo sport turi bo‘yicha Osiyo kubogi 1-o‘rin sohibi, Redjepova Farangiz 2022 yil 5-6 aprel kunlari U. Murodov xotirasi o‘tkazilgan yoshlar o‘rtasida Dzyudo sport turi bo‘yicha Osiyo kubogi 1-o‘rin sohibiga aylandi.

Talabalarning ilmga chanqoqligi, jamoat ishlarida faolligi hamda ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil yetish maqsadida yurtimizning **Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo,** viloyatlaridagi tarixiy obidalari, muqaddas ziyoratgohlariga 360 dan ortiq talabalarning tashriflari tashkil etildi.

Buxoro viloyat musiqali drama teatri bilan hamkorlik shartnomalari imzolanib, 1200 dan ortiq talabalarning teatrlarga tashriflari tashkil etildi.

Institutda Ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilib, jumladan, **4 nafar “temir daftar”da** turuvchi talabaning kontrakt to‘lovining 100 % i institut hisobidan, boquvchisidan ayrilgan **10 nafar xotin-qizlarning 50 % miqdoridagi kontrakt to‘lovlari, “Yoshlar daftari”da turuvchi 30** dan ortiq talabalarning kontrakt to‘lovlari mahalliy hokimliklar tomonidan to‘lab berilishiga ko‘maklashildi.

Shuningdek institutda tahsil olayotgan alohida iqtidorga ega, xalqaro, respublika va institut miqyosida o‘tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqalari g‘oliblari, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj, kam ta’minlangan oila farzandlari hamda institut jamoat va ma’naviy-ma’rifiy ishlarida faol bo‘lgan talabalarning **163 nafari budjetdan tashqari** mablag‘lari hisobiga rag‘batlantirildi.

Institutda tahsil olayotgan **37 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj nogironligi** bor talabalarga **bazaviy stipendiya miqdorining bir barobari miqdorida** yordam puli berildi.

Talabalarni turar joyida istiqomat qiluvchi **27 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj talabalarning yotoqxona to‘lovlari institut tomonidan qoplab berildi**.

Talabalar turar joyining manaviyat xonalari 5 muhim tashabbus doirasida tashkil qilingan Talabalarning zamon bilan hamnafas yashashi, dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklardan xabardor bo‘lish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil yetish maqsadida **talabalar turar joyida bepul wi-fi** zonalari tashkil yetildi. Talabalrning bandligini taminlash, ularning o‘z sarmoyalariga yega bo‘lish maqsadida institut tomonidan Talabalar turar joyida **tikuvchilik, go‘zallik saloni, Coworking va hunarmandchilik** markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Ijarada istiqomat qiluvchi talabalar bilan ishlash bo‘yicha alohida tizimli ishlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, guruh rahbari – tyutorlar tomonidan manzilli ishlar olib borilmoqda. Ijara shartnomasi asosida yashovchi 46 nafar talabalarning ijara to‘lovlarining **50 % miqdori** davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplab berildi.

Hozirda institutut Axborot resurs markazining ish faoliyati ikki smenada tashkil qilinib, **olti mingdan** ortiq kitoblar fondi bilan tshldirilib, talabalarning ilm olishlari va bshsh vaqtlarida kitobxonlik bilan band etishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Institutda 5 muhim tashabbus doirasida yoshlarning madaniyat va san’at, sport, kompyuter texnologiyalari, kitobxonlikka jalb etish borasida 20 dan ortiq to‘garak faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Mazkur to‘garaklarga institut talabalari bilan bir qatorda hamkor mahallalaridagi uyushmagan yoshlar ham jalb qilingan. Bugungi kunga kelib to‘garaklarga qatnashadigan mahallalardagi uyushmagan yoshlar soni 322 nafarni tashkil qilmoqda.

Institut o‘zi joylashgan hudud atrofidagi **5 ta Sifatmuniy, Oybek, Navbahor, Namozgoh, Ahmad Donish** mahalla fuqarolar yig‘inlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan bo‘lib, mahallalar bilan birgalikda ishlab chiqilgan yillik chora-tadbirlar dasturi asosida mahallalardagi hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari bilan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Institutda talabalarning qobilyatlarini namoyon etishlari uchun turli ko‘rik tanlov va sport musobaqalari, festivallar o‘tkazilib kelinmoqda.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov hamda a’zolari o‘z fikr mulohazalarini bildirishdi. Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida 2022/2022 o‘quv yili yakunlari bo‘yicha berilgan hisobot qoniqarli ekanligi va 2022/2023 o‘quv yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar maqsadli belgilanganligi aytib o‘tildi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1.Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida 2021/2022-o‘quv yili natijalari va 2022/2023-o‘quv yilida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar to‘g‘risidagi institut direktori M. Daminovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro davlat universitetining Pedagogika institutida 2021/2022-o‘quv yili yakunlari va 2022/2023-o‘quv yiliga tayyorgarlik ishlari qoniqarli deb hisoblansin.

3. Institutda ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo`lgan quyidagi ishlar amalga oshirish choralari ko`rilsin:

| | | Ergasheva Gulzoda Baxtiyorovna | | Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi |
| **16** | Boshlang'ich ta;lim metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimiga | Baxronova Adiba Ismailovna | Бухорономa 18 may №37 2022у | Boshlang'ich ta;lim metodikasi kafedrasi o'qituvchi |
| | | Raxmonova Gullola Shavkatovna | | Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi |
| **17** | Iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi lavozimiga | Qudratov Azizjon Deqqonovich | Бухорономa 18 may №37 2022у | Iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi |
| | | O`roqova Dilfuza Bahriddinovna | | Turizm va mexmonxona xo'jaligi kafedrasi o'qituvchisi |

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektrontanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengash a’zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig‘ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a’zolari tomonidan **buxduelektrontanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Kengash raisi O.X.Xamidov yashirin ovoz berish natijalarini tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

**1.** Kengash kotibi N. Dilovaning kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
**2.** Yuqorida tanlovdan o‘tgan talabgorlarning 5 yil muddatda kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga saylanganligi ta’kidlansin.
**3.** Mazkur qarorning ijro nazorati universitet kengashi kotibi N.G. Dilova zimmasiga yuklatilsin.

---

**6.2. BuxDUning PI kafedra dotsentи, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida **12** nafar professor o‘qituvchilarning ish hujjatlari o‘rganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida **6** nafar talabgorlar tanlovdan o‘tishga tavsiya etildi. Ularning ro‘yxati jadvalda keltirilgan

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **1.** | Harbiy ta’lim fakulteti dotsenti | Samadov Abdulaziz Ashurovich | Buxoronoma 16.04.2022 № 29 | Harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi |
| | | Temirov O’lmas Hamidovich | | Harbiy ta’lim fakulteti o‘qituvchisi |
| **2.** | Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi | Po‘latova Mohichehra Temirovna | Buxarskiy vestnik 12.03.2022 № 20 | “Xorijiy tillar” kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Muxtorova Maftuna Ilhom qizi | | BuxDU “Tarjimashunoslik va lingvodidaktika” kafedrasi o‘qituvchisi |
| **3.** | O‘zbek va rus tillari kafedrasi katta o‘qituvchisi | Aglamov Toxir Xusainovich | Buxoronoma 2.04.2022 № 25 | “O‘zbek va rus tillari” kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Baqoyev Mirjon Bafoyevich | | Buxoro tuman 28-maktab oliy toifali o‘qituvchisi |
| **4.** | Ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi | To‘yev Fazliddin Erkinovich | Buxarskiy vestnik 12.03.2022 № 20 | “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Jumayev Shahboz Shavkatovich | | Jondor tumani 13-maktab oliy toifali o‘qituvchisi |
| **5.** | “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi | Muxsinova Umriya Barnoyevna | Buxoronoma 02.03.2022 № 17 | “Maktabgacha ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Azimova Nodira Hikmatovna | | Buxoro davlat universitetining tyutori |
| **6.** | “Tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi | Husenov Behruz Qobil o‘g‘li | Buxoronoma 06.04.2022 № 26 | “Tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi |
| | | Quvvatov Suxrob Qudratovich | | Jondor tuman Yoshlar agentligi mutaxassisi |

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektrontanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo‘ydi. Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi.

Kengash a’zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig‘ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a’zolari tomonidan **buxduelektrontanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Kengash raisi O.X.Xamidov yashirin ovoz berish natijalarini tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

**1.** Kengash kotibi N. Dilovaning BuxDU ning Pedagogika instituti kafedra dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga tanlovlar to‘g‘risida bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
**2.** Yuqorida tanlovdan o‘tgan talabgorlarning 5 yil muddatda kafedra professori, dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi lavozimlariga saylanganligi ta’kidlansin.
**3.** Mazkur qarorning ijro nazorati universitet kengashi kotibi N.G. Dilova va BuxDU ning Pedagogika instituti kengash kotibi F. Nurova zimmasiga yuklatilsin.

---

**VII. TURLI MASALALAR.**

**7.1. Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: R.G‘.Jumayev** (O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor) Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida quyidagi axborotni berdi. Universitetning Ilmiy Kengashida quyidagi professor o‘qituvchilarning o‘quv qo‘llanma va darsliklarini tasdiqlab berishingizni so‘rayman.

| т/р | Mualliflarning F.I.Sh | Ixtisoslik shifri va nomi | Adabiyot nomi | Adabiyot turi | O‘quv-metodik kengashdan o‘tgan |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | M.M. Raxmatova | 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili, 5111400-Xorijiy til va adabiyot: ingliz tili, 5120200-Tarjima nazariyasi va amaliyoti | Study skils | Darslik | 27.06.2022 |
| 2 | Y.K. Qulliyev | 5112200-Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til | Опщая психология | Darslik | 27.06.2022 |
| 3 | M.S. Sharipov | 60530100-Kimyo | Analitik kimyodan masala va mashqlar to'plami | O'quv qo'llanma | 27.06.2022 |
| 4 | F.B. Sadulloyev | 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili | Mamlakatshunoslik | O'quv qo'llanma | 27.06.2022 |
| 5 | O.X. G'aniyeva | 5120100-Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili | Tili o'rganilayotgan mamlakat | O'quv qo'llanma | 27.06.2022 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | adabiyoti (Amerika adabiyoti) | | |
| 6 | H.X. Jo'rayev | 5130301-Tarix.Islom tarixi | Xattotlik maktabi tarixi | O'quv qo'llanma | 27.06.2022 |
| 7 | M.K. Ochilova Sh.Sh. Ortiqov | 70510103-Biotexnologiya | Analitik, fizkolloid va bioorganik kimyo fanidan labaratoriya ishlari | O'quv qo'llanma | 27.06.2022 |
| 8 | G. Teshayeva | 5120101-Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili | Oliy ta'limda Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rganish | Uslubiy qo'llanma | 27.06.2022 |
| 9 | D. Sadriddinova F. Qo'ziyeva | 5112000-Jismoniy madaniyat | Jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqot uslublari | Uslubiy qo'llanma | 27.06.2022 |
| 10 | J.Sh. Ostonov va Z.I. Qurbonova | 60110800-Kimyo, 60110900-Biologiya | Umumiy psixologiya | Uslubiy qo'llanma | 27.06.2022 |
| 11 | Sh.H. To'xtayev F.A. Ganiyeva | 5410300-O'simliklarni himoya qilish | G'o'za zararkunandalari va entomofaglarni nazorat qilish | Uslubiy qo'llanma | 27.06.2022 |
| 12 | Z.A. Qayimova | 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | Korxona iqtisodiyoti (rus tilida) fanidan kurs ishi | Uslubiy qo'llanma | 27.06.2022 |
| 13 | Z.A. Boltayeva va A.E. Xolliyev | Biologiya, ekologiya va tuproqshunoslik | O'simliklarga noqulay ekologik omillar ta'siri va uni baholash | Uslubiy qo'llanma | 27.06.2022 |
| 14 | M.N. Usmanova | 5110900-Pedagogika va psixologiya | Педагогическая практика для студентов | Metodik qo'llanma | 27.06.2022 |
| 15 | S.S. Abduyeva | 5112000-Jismoniy madaniyat | Методика воспитания спортивних подвижных игр. | Metodik qo'llanma | 27.06.2022 |
| 16 | M.A. Fatulloyeva | 5112000-Jismoniy madaniyat | Обшие основы спортивной подготовки волейболистов | Metodik qo'llanma | 27.06.2022 |
| 17 | M.N. Usmanova | 5210200-Psixologiya | Методические рекомендации по организацие самостоятельной работы студентов по психологичес ким дисциплинам | Metodik qo'llanma | 27.06.2022 |
| 18 | Sh.O. Alimova va S.F. Salimova | 61010400-Turizm, 5611500-Gid hamrohligi va tarjima nazariyasi | Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish fanidan tayanch | Uslubiy ko'rsatma | 27.06.2022 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | izohli iboralarni qo'llash bo'yicha | | |
| 19 | Sh.Sh.Boltayev, I.N.Niyozova,H.N. Abdullayeva | 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | Innovatsion iqtisodiyot fanidan kurs ishini bajarish | Uslubiy ko'rsatma | 27.06.2022 |
| 20 | A.J. Abdulloyev, A.A. Qodirov, S.S. Davlatov | 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | Markoiqtisodiy tahlil va prognozlash fanidan kurs ishi | Uslubiy ko'rsatma | 27.06.2022 |
| 21 | M.X. Urakova, M.M. Tairova, Z.A. Qayimova | 5230100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) | Korxona iqtisodiyoti fanidan kurs ishi | Uslubiy ko'rsatma | 27.06.2022 |
| 22 | F.A. Nazarova F.A. Fayziyeva | 60710400-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi | Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish fanidan | Lug'at | 27.06.2022 |
| 23 | H.X. Jo'rayev | 5130301-Tarix.Islom tarixi | Buxoro xattot | Lug'at | 27.06.2022 |
| 24 | U.T. Norboyeva, Yo.D. Xolov va F.A. Fayziyeva | 60710400-Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi | O'simliklar ekologiyasidan amaliy mashg'ulotlar | Uslubiy qo'llanma | 27.06.2022 |

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so‘ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning darslik va o‘quv qo‘llanmalarini tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Nomlari keltirilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalar vazirlik grifini olish uchun Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi oliy va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etish uchun bir ovozdan tasdiqlanishini inobatga olib,

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayevning universitet pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarini vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Mualliflari jadvalda keltirilgan professor o‘qituvchilarning o‘quv qo‘llanmalari va darsliklari Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi oliy va professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash muhokamasiga tavsiya etilsin.
3. Mazkur qaror ijro nazorati O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.2. 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini, oshirilgan to‘lov-kontrakt miqdori amalda o‘rnatilgan to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatini va talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish.**

**ESHITILDI:** O‘.U.Rashidov (Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor) Xabarlaringiz bor, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-61-sonli qarorining 2 bandiga asosan Moliyaviy mustaqillik

berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilgan:

ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash;

talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish.

Shu bilan birga ushbu qarorning 5 bandida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi «Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4391-son qaroriga asosan o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tayotgan oliy ta’lim muassasalariga berilgan vakolat va huquqlar ushbu qarorga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalariga tatbiq etilsin.

Bunda:

moliyaviy mustaqillik berilayotgan davlat oliy ta’lim muassasalari yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan budjet mablag‘larini oluvchi davlat tashkiloti hisoblanadi;

talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymati oliy ta’lim muassasasi tomonidan ta’lim xizmatlari bozoridagi talab va taklifdan kelib chiqib, biroq tegishli yo‘nalish bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatidan uch baravardan ortiq bo‘lmagan miqdorda belgilanadi;

bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura va klinik ordinatura mutaxassisliklari kesimida qabul shartlarida to‘lov-kontrakt qiymati tabaqalashtirilgan miqdorlarda belgilanishi mumkin, deb ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, abituriyentlar va ularning ota-onalari Buxoro davlat universitetida mavjud bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida talabalarni to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatlari bilan oldindan xabardor qilib, boshqa oliy ta’lim muassasalari to‘lovlari bilan taqqoslash imkoniyatini yaratish maqsadida 2022-2023 o‘quv yilidan o‘qishga qabul qilingan talabalarning to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini belgilash, talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish tartiblarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bugungi kunda ta’lim xizmatlari bozorida Buxoro davlat universitetining o‘rni yuqoriligi, shuningdek, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining hozirgi zamon talablariga javob beradigan keng qamrovli yo‘nalishlari mavjudligini inobatga olgan holda tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatining **1,4 baravari** miqdorada, iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga o‘qishga qabul qilishda tegishli yo‘nalish bo‘yicha Buxoro davlat universitetida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatining **2 baravari** miqdorida, shuningdek Qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatining **2,5 baravari** (xorijiy hamkor ta’lim muassasalari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq to‘lanadigan mablag‘lardan tashqari) miqdorida belgilanishi, shu bilan birga oshirilgan to‘lov-kontrakt miqdori amalda o‘rnatilgan to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

to‘plagan ballari tasdiqlangan to‘lov-kontrakt bo‘yicha qabul kvotalari chegarasiga bir ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — 1,5 barobar;

1,1 balldan 2 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,0 barobar;

2,1 balldan 3 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,5 barobar;

3,1 balldan 4 ballgacha yetmaganlar uchun — 3,0 barobar;

Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)da to‘plagan natijalari Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam bo‘lmagan, asosiy kvotalar doirasida va Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan qo‘shimcha o‘rinlarga qabul qilinmay qolgan va o‘qish istagini bildirgan abituriyentlarga birinchi o‘quv yiliga amalda o‘rnatilgan to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatan 10 barobar va undan ortiq oshirilgan to‘lov-kontrakt miqdorida to‘lovni amalga oshirish sharti bilan o‘qishga kirish huquqi beriladi.

Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko‘ra Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam ball to‘plagan abituriyentlarga birinchi o‘quv yiliga amaldagi oshirilgan to‘lov-kontraktning ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan

eng yuqori miqdorining 2 barobariga teng to‘lovni amalga oshirish sharti bilan o‘qishga kirish huquqi beriladi.

Talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilangan to‘lov miqdorining kamida 25% talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun **15 sentabrgacha**, ikkinchi va undan keyingi bosqich talabalari uchun 1-oktabrgacha, belgilangan to‘lov miqdorining kamida 50% **1 yanvargacha,** 75 foizini **1 aprelgacha** va 100 foizini **1 iyulgacha** qilib belgilash va talabaning asosli sabablari ko‘rsatilgan holdagi yozma murojaatnomasiga ko‘ra Universitet kengashining qarori asosida bir semestr uchun uzaytirishni taklif etaman.

**Rais:** Ushbu masala bo‘yicha axborot tugadi. Marhamat, axborot bo‘yicha qanday savol va takliflar bor?

Ushbu masala yuzasidan kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatini tasdiqlashni,shu bilan birga talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini fors-major holatlarda uzaytirishni taklif etishdi.

**Rais:** Buxoro davlat universitetining 2022-2023 o‘quv yilida ta’lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatlarini va talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlarini belgilash va uzaytirish to‘g‘risidagi taklifni ovozga qo‘yaman.

Rozilar - 70 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universiteti Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U.Rashidovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Buxoro davlat universitetining 2022-2023 o‘quv yili uchun to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish qiymatlari tegishli yo‘nalish bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatining **1,4 baravari** miqdorida, Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga o‘qishga qabul qilishda tegishli yo‘nalish bo‘yicha Buxoro davlat universitetida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatining **2 baravari** miqdorida, shuningdek Qo‘shma ta’lim dasturlari bo‘yichadavlat oliy ta’lim muassasalarida belgilangan bazaviy to‘lov-kontrakt qiymatining **2,5 baravari** (xorijiy hamkor ta’lim muassasalari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq to‘lanadigan mablag‘lardan tashqari)miqdorida belgilansin.
3. Oshirilgan to‘lov-kontrakt miqdori amalda o‘rnatilgan to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilansin:

to‘plagan ballari tasdiqlangan to‘lov-kontrakt bo‘yicha qabul kvotalari chegarasiga bir ballgacha yetmagan abituriyentlar uchun — 1,5 barobar;
1,1 balldan 2 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,0 barobar;
2,1 balldan 3 ballgacha yetmaganlar uchun — 2,5 barobar;
3,1 balldan 4 ballgacha yetmaganlar uchun — 3,0 barobar.

Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon)da to‘plagan natijalari Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam bo‘lmagan, asosiy kvotalar doirasida va Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan qo‘shimcha o‘rinlarga qabul qilinmay qolgan va o‘qish istagini bildirgan abituriyentlarga birinchi o‘quv yiliga amalda o‘rnatilgan to‘lov-kontrakt miqdoriga nisbatan 10 barobar va undan ortiq oshirilgan to‘lov-kontrakt miqdorida to‘lovni amalga oshirish sharti bilan o‘qishga kirish huquqi berilsin.

Kirish imtihonlari (test sinovlari, kasbiy (ijodiy) imtihon, yozma imtihon) natijalariga ko‘ra Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan minimal balldan kam ball to‘plagan abituriyentlarga birinchi o‘quv yiliga amaldagi oshirilgan to‘lov-kontraktning ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha belgilangan

eng yuqori miqdorining 2 barobariga teng to‘lovni amalga oshirish sharti bilan o‘qishga kirish huquqi berilsin.

4. Talabalarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lash muddatlari belgilangan to‘lov miqdorining kamida 25% talabalikka tavsiya etilgan abituriyentlar uchun **15 sentabrgacha,** ikkinchi va undan keyingi bosqich talabalari uchun **1 oktabrgacha,** belgilangan to‘lov miqdorining kamida 50% **1 yanvargacha**, 75 foizini **1 aprelgacha** va 100 foizini **1 iyulgacha** qilib belgilansin va talabaning asosli sabablari ko‘rsatilgan holdagi yozma murojaatnomasiga ko‘ra Universitet kengashining qarori asosida bir semestr uchun uzaytirilsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat etish Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor O‘.U. Rashidov zimmasiga yuklansin.

---

**7.3. Turkmaniston Respublikasidan bo’lgan xorijlik bitiruvchi talabalarning Turkmaniston chegara punkiti ochilib ketganga qadar talabalar turar joyida qolishi tashkil etish masalasida.**

**ESHITILDI: Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor A.T.Jo’rayev:** Bugungi kunda Buxoro davlat universitetida 281 nafar xorijlik talabalar tahsil olmoqda. Tahsil olayotgan talabalarning aksariyat qismi (263 nafari) bitiruvchi kurs talabalari bo‘lib, asosiy qismini Turkmaniston Respublikasi (262 nafari) fuqarolari tashkil etadi.

Ayni kunlarda talabalar tomonidan o‘qish muddati yakunlandi. O‘qish davomiyligi talabalarning yo‘nalishlari kesimida har xil muddatlarga mos keladi. Shundan kelib chiqib, bitiruvchi talabalarga 2022-yil 20-iyuliga qadar o‘qishini to‘liq tamomlab diplomlari beriladi.

2020-yil mart oyidan boshlangan pandemiyadan keyingi davrdan hozirga qadar Turkmaniston Respublikasi bilan chagara punkitining vaqtincha yopiqligi va pandemiya sharoitidan kelib chiqib ta’til vaqtlarida ham talabalar Buxoro davlat universiteti talabalar turar joyi va yaqin qarindoshlarinikida yashab kelmoqda.

2022-yil 20-iyuldan Turkmaniston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan talabalar o‘qishni tugatishi (262 nafar, 2 nafari O‘zbekistonda doimiy yashash guvohnomasiga ega), viza muddatlari va vaqtincha yashash joyi sifatida universitet talabalar turar joyi (Buxoro shahar, Navoiy shoh ko‘chasi va Buxoro shahar, Qayum Murtazoyev ko‘chasi, 248 nafar) va yaqin qarindoshlari turar joyidan (9 nafar) ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib Turkmanistonga o‘tish chegara punkiti yopiqligi sabab o‘z mamlakatiga qayta olmayapti.

Ushbu holat bo’yicha Buxoro viloyat IIB M va FRB boshqarmasi ham ogohlantirilgan bo’lib, masalani ko’rib chiqish bo’yicha murojaat qilingan.

Talabalarning aksariyatining universitetda magistraturada qolish istagi mavjudligi uchun viza muddatlari yilning oxiriga qadar rasmiylashtirilgan va universtitet yotoqxonasida vaqtincha ro’yxatdan o’tkazilgan. Yuqoridagi holatni inobatga olib, talabalarning universtet yotoqxonasida Turkmaniston Respublikasiga qaytganga qadar qolishini va ularningichki tartib qoidalarga rioya qilgan holda yashashini nazoratini tegishliligi bo’yicha dekanatlarga yuklanishi (kurator va tutorlar) maqsadga muvofiq.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. BuxDU Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor A.T.Jo’rayevning ma’lumoti axborot uchun qabul qilinsin.
2. Turkmaniston Respublikasi fuqarosi hisoblangan talabalarning Turkmaniston chegara punkti ochilgunga qadar universtet talabalar turar joyida va belgilangan yashash hududlarida qolishiga ruxsat berilsin.
3. Belgilangan tartibda, universitet ichki tartib qoidalariga rioya qilgan holda universitet talabalar turar joyidan foydalanish bo’yicha nazorat talabalar turar joyi direktoriga yuklansin.
4. Har bir fakultet dekanatlar tomonidan har bir talabaga mas’ul biriktirgan holda, talabalardan doimiy ravishda xabar olib turish va biriktirilgan talabalarining ro’yxatdan o’tgan yashash hududidan xabardor bo’lib turish vazifasi yuklansin va o’rganilish holati bayonlashtirib borilsin.

5. Turkmanistonlik talabalarning viza muddati tugallanishiga yaqin qolganda Xalqaro hamkorlik bo'limi tomonidan zarur hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish vazifasi yuklansin.
6. Talabalarning turar joyida yashash bilan bo'gliq xarajatlarni qoplash va yoki boshqa holatlar bo'yicha Moliya ishlari bo'yicha prorektor bir hafta muddatda taklif kiritsin.
7. Ushbu qaror ijrosi o'quv ishlari bo'yicha prorektor va xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor zimmasiga yuklansin.

---

**7.4. Kafedra professor-o'qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.**

7.4.1. Musiqa kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Nurullayev Farrux Gaybullayevichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

7.4.2. Psixologiya kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Avezov Olmos RAvshanovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

7.4.3. Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi professori B.K. Bakayevaning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

7.4.4. Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Umurov Zarif Latipovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

7.4.5. Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent A.R. Xamroyevning professor ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to'g'risida.

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d., (Ph.D)): - Kengash a'zolariga yuqorida nomlari ko'rsatilgan ilmiy unvonlarga talabgor professor o'qituvchilarning O'zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyiqligini ta'kidlab, tavsiya beruvchi kafedra, fakultet va ilmiy texnik kengashlarning yig'ilish bayonlaridan ko'chirmalari mavjudligini ma'lum qildi. Talabgorlarning so'nggi yillar mobaynida nashr ettirgan ilmiy, o'quv uslubiy ishlarini, shogirdlari haqidagi buyruqlari mavjudligini ta'kidlab o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, Musiqa kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Nurullayev Farrux Gaybullayevich, Psixologiya kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Avezov Olmos Ravshanovich, Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi professori B.K. Bakayeva, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi dotsenti Umurov Zarif Latipovich, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri A.R. Xamroyevlarning barcha hujjatlari tegishli ilmiy unvonlarni olish uchun belgilangan talablarni to'liq bajargan.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgorning nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a'zosida 70 nafari ishtirok etdi.
Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

Talabgorlar uchun 70 kishi "rozi", "qarshi" va betaraflar yo'q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo'lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi:**

1. Musiqa kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Nurullayev Farrux Gaybullayevich, Psixologiya kafedrasi dotsenti lavozimida faoliyat yuritayotgan Avezov Olmos Ravshanovich, Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi professori B.K. Bakayeva, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrasi dotsenti Umurov Zarif Latipovich, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi mudiri A.R. Xamroyevlar tegishli ilmiy unvonlarga tavsiya etilsin.

2. Talabgorlarning hujjatlarini 10 ish kunida O‘zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.5. Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi dotsenti, i.f.d. (DSc) N.S. Ibragimov 2022 yilda xalqaro reyting indikatorlarida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi universitetlaridan biri (QS:357) Qozog‘iston Yevroosiyo milliy universiteti doktoranti Berdibekova Amina Shukurqali qiziga xorijiy maslahatchi sifatida tayinlanganligi to‘g‘risida.**

**ESHITILDI:G.T. Zaripov** (Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i) – kengash a’zolariga Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi dotsenti, i.f.d. (DSc) N.S. Ibragimov 2022 yilda xalqaro reyting indikatorlarida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi universitetlaridan biri (QS:357) Qozog‘iston Yevroosiyo milliy universiteti doktoranti Berdibekova Amina Shukurqali qiziga xorijiy maslahatchi sifatida tayinlanganligi to‘g‘risida ma’lumot berdi.

Ushbu masala bo‘yicha Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani, i.f.n., dotsent D.Sh. Yavmutov o‘z fikrini bildirib, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi dotsenti, i.f.d. (DSc) N.S. Ibragimov 2022 yilda xalqaro reyting indikatorlarida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi universitetlaridan biri (QS:357) Qozog‘iston Yevroosiyo milliy universiteti doktoranti Berdibekova Amina Shukurqali qiziga xorijiy maslahatchi sifatida tayinlanganligini e‘tirof etdi hamda bu boradagi ilmiy ishlarni qo‘llab-quvvatlash lozimligini ta’kidladi.

Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘ining axboroti va so‘zga chiqqanlarning fikr-mulohazalariga asoslanib,

**Kun tartibidagi ushbu masala bo‘yicha kengash qaror qiladi:**

**1**. Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i G.T. Zaripovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasi dotsenti, i.f.d. (DSc) N.S. Ibragimov 2022 yilda xalqaro reyting indikatorlarida dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi universitetlaridan biri (QS:357) Qozog‘iston Yevroosiyo milliy universiteti doktoranti Berdibekova Amina Shukurqali qiziga xorijiy maslahatchi sifatida tayinlanganligi e’tirof etilsin.

**3.** Ta’lim sohasidagi xalqaro integratsiyani ta’minlash maqsadida bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlari qo’llab-quvvatlansin (mas’ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, IT, I va IPKTB boshlig‘i).

**4.** Ushbu qarorning ijro nazoratini Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor A.T. Jurayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.6. 2022/2023 o‘quv yilida fakultetlarda o‘quv me’yoriy xujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.G‘.Jumayev** (O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor) Universitetda mavjud barcha yo‘nalishlar (kunduzgi, sirtqi) 2-4 kurslar va magistratura mutaxassisliklari uchun ishchi o‘quv rejalari kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan holda tayyorlandi.

Kafedralar tomonidan yangi o‘quv yiliga 1-2-kurslar uchun o‘quv rejalar O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘risida”gi xatiga asosan mutaxasslik kafedra professor-xodimlari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining takliflarini inobatga olgan holda kredit-modul tizimi asosida tayyorlanmoqda (Loyihalar tayyor, tasdiqlanmagan). Ishchi o‘quv rejalar asosida yangi o‘quv yili uchun universitetning umumiy yuklamasi hisoblanmoqda.

Kafedralar tomonidan yangi o‘quv yili uchun dars soatlari hajmi tayyorlangan. Qisqa muddatda professor o‘qituvchilarning dars soatlari taqsimoti tayyorlanib pedagog xodimlarga taqdim etilishi rejalashtirilgan.

Universitetda 2022/2023 o‘quv yilida o‘quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Mutaxassislik kafedralar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘risida”gi xatining 8-ilovasiga asosan o‘quv rejalar va fan dasturlarining loyihalari ishlab chiqilgan va universitetda tuzilgan ekspertiza komissiyasiga taqdim Ъetilgan.

Kafedrada faoliyat yuritayotgan professor-o‘qituvchilar tomonidan tegishli fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy hujatlar ishlab chiqilgan bo‘lib, fakultetlar tomonidan tasdiqlangan hamda umiversitet metodik kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etilgan.

Yangi o‘quv yili uchun o‘qitiladigan fanlardan o‘quv kontentlarni shakllantirish ishlari boshlangan.

Kengash a’zolaridan ushbu tayyorlangan yo‘nalishlar kesimida o‘quv va ishchi o‘quv rejalarni tasdiqlab berishlarini so‘rayman.

Ushbu masala bo‘yicha R.G‘.Jumayev so‘zga chiqib, tasdiqlanishga tavsiya etilayotgan o‘quv va ishchi o‘quv rejalar ekspetr guruhi tomonidan o‘rganib chiqilganligini hamda tegishli taklif va tavsiyalar asosida yanada takomillashtirilganligini ta’kidladi. Yuqoridagilarni inobatga olib, o‘quv me’yoriy xujjatlarni tasdiqlab berishingizni so‘radi.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so‘ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov 2022/2023 o‘quv yilida fakultetlarda o‘quv me’yoriy xujjatlarni tasdiqlash uchun ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayevning 2022/2023 o‘quv yilida o‘qitiladigan yo‘nalishlar kesimida o‘quv va ishchi o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2022/2023 o‘quv yilida fakultetlarda o‘quv me’yoriy xujjatlarni tasdiqlash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.
3. 2022/2023 o‘quv yilida fakultetlarda o‘quv me’yoriy xujjatlarni tasdiqlash natijalari yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig‘ilishlarida muhokama qilinsin (mas’ullar: fakultet o‘quv ishlari bo‘yicha dekano‘rinbosarlari).
4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.7. Pedagogik ta’lim sohasi talabalarining o‘quv jarayonlarini 4+2 (4 kun o‘quv va 2 kun amaliyot) tashkil etish va belgilangan tartib asosida o‘quv rejalariga o‘zgartirish kiritish va tasdiqlash to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.G‘.Jumayev** (O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor) kengash a’zolariga Pedagogik ta’lim sohasi talabalarining o‘quv jarayonlarini 4+2 (4 kun o‘quv va 2 kun amaliyot) tashkil etish va belgilangan tartib asosida o‘quv rejalariga o‘zgartirish kiritish va tasdiqlash to‘g‘risida axborot berdi

O‘zbekistor Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va ularda boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, yuqori malakali professional kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko‘tarish, shuningdek, pedagogika sohasida ta’lim, ilm-fan va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash maqsadida Buxoro davlat universitetida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

Buxoro davlat universitetida pedagogik ta’lim sohasiga tegishli 12 ta bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi

| T.r. | Ta’lim yo‘nalishi nomi | Kursi |
|---|---|---|
| 1. | Jismoniy madaniyat | 3 |
| 2. | Jismoniy madaniyat (xotin-qizlar sporti) | 3 |
| 3. | Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish | 3-4 |
| 4. | Maktabgacha ta’lim | 3 |
| 5. | Texnologik ta’lim | 3 |
| 6. | Pedagogika va psixologiya | 3-4 |
| 7. | Musiqa ta’limi | 3 |
| 8. | Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi | 3 |
| 9. | Ona tili va adabiyoti: rus tili va adabiyoti o‘zga tilli guruhlarda | 4 |
| 10. | O‘zga tilli guruhlarda rus tili | 3 |
| 11. | Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda xorijiy til (ingliz tili) | 3 |
| 12. | Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili | 3 |

Mazkur ta’lim yo‘nalishlarining ta’lim dasturlarini xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlikda qayta ko‘rib chiqib va ularni Milliy malaka ramkasi, Ta’limni xalqaro standart klassifikatori (MSKO-2011) va xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS, PIRLS, TALIS) talablariga moslashtirilmoqda.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida akademik mobillikni yo‘lga qo‘yish uchun ularning o‘quv rejalari va ta’lim dasturlarini bir-biriga muvofiqlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

2022/2023 o‘quv yilidan boshlab universitetda kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 - 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni universitetda, 2 kuni maktabgacha va умумий ўрта таълим muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishi o‘quv rejalarda o‘z aksini topdi va yangi o‘quv yilida amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

2023-yil 1-sentabrga qadar budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan zamonaviy uskunalar va jihozlar bilan ta’minlangan fizika, kimyo, biologiya va texnologik ta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv laboratoriyalarni tashkil etish yuzasidan tegishli takliflar tayyorlandi.

2024-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari uchun «Oliy ta’lim jarayonlarini boshqarish» axborot tizimida elektron o‘quv dasturlar, darsliklar, ilmiy-tadqiqot ishlari, maqolalar, taqdimotlar, multimedia ta’lim mahsulotlari, ma’ruzalarning audio va video yozuvlari hamda boshqa kontentlarni joylashtirish bo‘yicha chora tadbirlar rejasi ishlab chiqilmoqda.

Yangi o‘quv yilidan boshlab har yili universitet ixtisoslik kafedralarining kamida 5 foiz professor-o‘qituvchilarini budjetdan tashqari jamg‘armalari hisobidan xorijiy davlatlarga tanlov asosida malaka oshirish va stajirovkaga yuborish rejalarini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolari o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so‘ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov Pedagogik ta’lim sohasi talabalarining o‘quv jarayonlarini 4+2 (4 kun o‘quv va 2 kun amaliyot) tashkil etish va belgilangan tartib asosida o‘quv rejalariga o‘zgartirish kiritish va tasdiqlash to‘g‘risidagi taklifni ovozga qo‘ydi.

Rozilar - 70 nafar
Qarshilar - yo‘q
Betaraflar - yo‘q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib**, kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayevning Pedagogik ta’lim sohasi talabalarining o‘quv jarayonlarini 4+2 (4 kun o‘quv va 2 kun amaliyot) tashkil etish va belgilangan tartib asosida o‘quv rejalariga o‘zgartirish kiritish va tasdiqlash to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Pedagogik ta’lim sohasi talabalarining o‘quv jarayonlarini 4+2 (4 kun o‘quv va 2 kun amaliyot) tashkil etish va belgilangan tartib asosida o‘quv rejalariga o‘zgartirish kiritish va tasdiqlash to‘g‘risidagi gi o‘quv ishlari bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.
3. Pedagogik ta’lim sohasi talabalarining o‘quv jarayonlarini 4+2 (4 kun o‘quv va 2 kun amaliyot) tashkil etish va belgilangan tartib asosida o‘quv rejalariga o‘zgartirish kiritish va tasdiqlash to‘g‘risidagi mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig‘ilishlarida muhokama qilinsin va ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas’ullar: fakultet dekanlari; muddat: bir oy davomida).
4. Mazkur qaror ijro nazorati O‘quv-ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

**7.8. Universitetda Oliy ta’limdan keying ta’lim institutida 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati hamda 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosliklarini ochish to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: N.G. Dilova** (BuxDU kengashi kotibi) – so’zni Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor v.b. A.T. Jo‘rayevga berdi.

A.T. Jo‘rayev kengash a’zolarini Oliy ta’limdan keying ta’lim institutida ixtisosliklari bilan tanishtirib o’tdi. Universitetda iqtisodiyot va filologiya sohasida koplab professor-o’qituvchilar, fan nomzodi, dotsentlar mavjudligi, ularda yosh tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilish qobiliyati, salohiyati yetarli ekanligini, 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati hamda 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosliklarini ochish maqsadga muvoffiqligini aytib o’tdi.

**Kengash raisi O.X. Xamidov:** ushbu masala bo‘yicha kimda qanday savol yoki takliflar bor, marhamat!

Ushbu masala bo‘yicha kengash a’zolaridan prorektorlar A. Amonov, R. Jumayev, O‘. Rashidov, A. Jo‘rayevlar, dekanlar H. Artikova, D. Yavmutov, H. Eshankulov, H. Jo‘rayevlar, kafedra mudirlari T. Shafiyev, B. Namozov. Sh. Olimov, M. Ro‘ziyeva, M. Hikmatova, O. Fayzullayevlar ham o‘z taklif va fikrlarini bildirishdi.

Universitetda Universitetda Oliy ta’limdan keying ta’lim institutida 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati hamda 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosliklarini ochish taklifi ma’qullandi.

Kengash raisi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor v.b. A.T. Jo‘rayevning axborotini ma’lumot uchun qabul qilib, yangi ixtisosliklar ochish taklifini ovozga qo‘ydi.

Universitet kengashi a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatladilar.

Qarshilar va betaraflar yo‘q.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. A.T. Jo‘rayevning “Universitetda Oliy ta’limdan keying ta’lim institutida 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati hamda 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosliklarini ochish to‘g‘risida” axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universitetda Oliy ta’limdan keying ta’lim institutida 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati hamda 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosliklarini ochish to’g’risidagi tallifi tayyorlanib, Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligiga taqdim etilsin.
3. Ушбу қарор ижроси Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘lim boshlig‘i Г.Т. Зарипов зиммасига юклатилсин.

**7.9. 2021/2022 o'quv yili yozgi ta'til davomida akademik qarzdor talabalar uchun tashkil qilingan qayta o'zlashtirish darslarini o'tgan professor-o'qituvchilarga soatbay haq to'lash haqida**

**ESHITILDI: R.G'.Jumayev** (O'quv-ishlari bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga 2021/2022 o'quv yili yozgi ta'til davomida akademik qarzdor talabalar uchun tashkil qilingan qayta o'zlashtirish darslarini o'tgan professor-o'qituvchilarga soatbay haq to'lash masalasi bo'yicha axborot berdi.

Xabaringiz bor, 2020/2021-o'quv yilida akademik qarzdor bo'lgan talabalar va 2021/2022 o'quv yilida akademik qarzdor bo'lgan magistrlar uchun Buxoro davlat universiteti rektorining 2022-yil 28-fevraldagi 117-U-01 sonli hamda 2022-yil 10-iyundagi 96-08-T sonli buyruqlariga asosan yozgi ta'til davomida qayta o'zlashtirish darslari tashkil qilindi.

Sizdan Buxoro davlat universiteti rektorining 2022-yil 28-fevraldagi 117-U-01 sonli hamda 2022-yil 10-iyundagi 96-08-T sonli buyruqlariga asosan yozgi ta'til davomida tashkil qilingan qayta o'zlashtirish darslarni o'tgan professor-o'qituvchilarga soatbay asosda ish haqi to'lashga ruxsat berishingizni so'rayman.

Ushbu masala bo'yicha kengash a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi. Muhokama so'ngida unversitet rektori, kengash raisi O.Xamidov Buxoro davlat universiteti rektorining 2022-yil 28-fevraldagi 117-U-01 sonli hamda 2022-yil 10-iyundagi 96-08-T sonli buyruqlariga asosan yozgi ta'til davomida tashkil qilingan qayta o'zlashtirish darslarni o'tgan professor-o'qituvchilarga asosan soatbay asosda ish haqi to'lash to'g'risidagi taklifni ovozga qo'ydi.

Rozilar - 70 nafar
Qarshilar - yo'q
Betaraflar - yo'q

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

1. O'quv-ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayevning 2021/2022 o'quv yili yozgi ta'til davomida akademik qarzdor talabalar uchun tashkil qilingan qayta o'zlashtirish darslarini o'tgan professor-o'qituvchilarga soatbay haq to'lash to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2021/2022 o'quv yili yozgi ta'til davomida akademik qarzdor talabalar uchun tashkil qilingan qayta o'zlashtirish darslarini o'tgan professor-o'qituvchilarga belgilangan tartibda soatbay haq to'lansin.
3. Mazkur qaror ijro nazorati O'quv-ishlari bo'yicha prorektor R.G'.Jumayev, Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor O'.U. Rashidov, Xodimlar bo'limi boshlig'i U. Fayziyevalar zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi:** Buxoro davlat universiteti kengashining **11 - yig'ilishi kun tartibiga** kiritilgan barcha masalalar muhokama qilindi va kengash o'z ishini yakunlaydi.

**Kengash o'z ishini tugatdi.**

**BuxDU kengashi raisi** **O.X. Xamidov**

**BuxDU kengashi kotibi** **N.G. Dilova**